Tarkib stansiyaga kirib kelgan vaqtda texnik ko‘rik punkti (TKP) xodimlari unga texnik xizmat ko‘rsatishni boshlaydilar. Tarkib to‘liq to‘xtagach to‘xtatish boshmoqlari bilan mahkamlanadi, lokomotiv ajratiladi va tarkib chegaralangandan so‘ng texnik ko‘rikdan o‘tkazish davom ettiriladi. Kuzatuv vaqtida nosozliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etish uchun vagonni uzib ta‘mirlash lozim bo‘ladi. Bunday vagonlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar katta kuzatuvchi tomonidan STMga uzatiladi unga ko‘ra saralash qog‘oziga o‘zgartirishlar kiritiladi. Ko‘rikdan o‘tkazish davrida tormozlarni qo‘yib yuborish amalga oshiriladi va mayda nosozliklar bartaraf etiladi. Tarkibdan uzmasdan ta‘mirlanishi lozim bo‘lgan vagonlarga melli belgi qo‘yiladi va nosozliklar keyinroq jo‘natish parkida bartaraf etiladi. Texnik ko‘rik bilan bir vaqtning o‘zida tijoriy ko‘rikdan o‘tkazuvchilar vagonning tijoriy ko‘rigini amalga oshiradilar. Bunda harakat xavfsizligini ta‘minlash va yuklarning saqlanishiga xavf tug‘diruvchi nosozliklar aniqlanadi (ochiq harakat tarkibidagi yuklarning mahkamlanganligi, yukning gabaritdan chiqib ketmaganligi, yopiq vagonlardagi plombalarning mavjudligi va holatlari hamda boshqalar tekshiriladi). Vagonlarning harakat xavfsizligiga xavf tug‘diruvchi tijoriy nosozliklar aniqlanganda, ularni tekshirib ko‘rish uchun alohida yo‘lga jo‘natiladi (yuklashlarni, qayta yuklashlarni to‘g‘rilash) va bu to‘g‘risida umumiy GU-23 shakldagi dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Bunday vagonlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xuddi shunday STM markaziga ham beriladi va uning asosida saralash qog‘ozida o‘zgartirishlar bajariladi [9].

Vagonlarning texnik hamda tijoriy ko‘riklari yakunlangandan so‘ng chegaralar olib tashlanadi va tarkibni olib ketish, uni tepalik cho‘qqisigacha surib borish va saralash qog‘oziga mos ravishda saralash uchun manyovr lokomotivi beriladi.

Jarayonlar	Poyezd kelgun-cha	Kelgandan so‘ng davomiyligi, daqiqa								Ijrochilar
		0	10	20	30	40	50	60	70	
Poyezdning nomeri, indeksi va kelish vaqti haqidagi xabarni DNSdan qabul qilish										Manyovr dispetcheri, stansiya navbatchisi
Poyezdni qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan xodimlarni poyezdni kelish vaqti va qabul qilinadigan yo‘l raqami bo‘yicha xabardor qilish										Stansiya navbatchisi
Poyezdni qayta ishlashga jalb qilingan xodimlarni qabul qilish yo‘liga chiqishi										Stansiya navbatchisi
Qabul qilinuvchi poyezdning TGNLi bilan vagonlar nomerini sanash orqali mavjud tarkibni nazorat tekshiruvidan o‘tkazish		10								STM operatori (teletaypchi)
Poyezdning qabul qilinganligi haqida AHMga xabar berish (201-xabar)			5							STM operatori
Tarkibni mahkamlash, poyezd lokomotivini ajratish va tarkibni to‘shish		10								STM operatori
DU-40 jurnaliga imzo chekish orqali kelgan poyezdning tashish hujjatlarini qabul qilish			5							Lokomotiv brigadasi, STM operatori
TGNL bilan poyezd hujjatlarini tekshirish (zarur vaziyatlarda 09 xabari bilan TGNLga o‘zgartirish kiritish)				30						STM operatori
Tarkibning texnik va tijoriy ko‘rigi				55						TKP xodimlari
Tarkibning ko‘rigi tugaganligi haqida DSP ga xabar berish va to‘siqlarni olish								5		Tijoriy KP xodimlari
Ishlov berishning umumiy vaqti		70								

1- rasm. Qabul qilish parkida qayta ishlovga kelgan poyezdga ishlov berish jarayonlarining texnologik grafigi

Stansiyada tuzilgan poyezdni qayta ishlash texnologiyasi. “Q” stansiyaning mahalliy vagonlari bo‘sh bo‘lgan yo‘llarning birida yig‘iladi va u “stansiyada tuzilgan poyezd” deb nomlanadi. Mazkur poyezd tuzilgandan so‘ng, poyezdni tortuv turi bilan ta‘minlash maqsadida “Q” stansiya navbatchisi poyezd dispetcherlari, MTU navbatchisiga ma‘lum qiladi. Stansiyaning o‘zida tuzilgan poyezd, poyezd tuzish rejasiga asosan tuziladi [10].

- Stansiyada poyezd tuzilgandan so‘ng quyidagi ishlar amalga oshiriladi:
- natur varag‘i bilan tarkibning vagonlar joylashgan tartibini solishtirish;
 - tashish hujjatlarining vagonlarga mosligini tekshirish;
 - tarkibni texnik ko‘rikdan o‘tkazish;
 - tijoriy ko‘rikdan o‘tkazish;

- aniqlangan kamchiliklarni joyida tuzatish;
- avtotormoz qismini sinovdan o'tkazish.

Jarayonlar	Poyezd kelguncha	Daqiqa									Ijrochilar
		10	20	30	40	50	60	70	80	90	
Tarkibni olib o'tish yo'li bo'yicha DNTs bilan kelishish											Man. disp., DSP
Tarkibni yo'lga olib o'tish va ro'yxatga olish											Lok.brig. STM oper.-i, DSPP
Tarkibni mahkamlash, manyovr lokomotivlarini uzish va tarkibni to'sish		10									DSPP, lok.brig. TXP oper
Tarkibning texnik ko'rigi va vagonlarni joriy ko'rikdan o'tkazish					55						TXP xodimlari
Tarkibning tijoriy ko'rigi va nosozliklarni bartaraf etish					55						TKP xodimlari
Hujjatlarni yig'ish, natur varag'ini tuzish va ASOUPga xabar jo'natish					50						STM operatori
Poyezdning yuk hujjatlarini konvertlash va tashish hujjatlarini lokomotiv brigadasiga uzatish									10		STM operatori
To'siqlarni olish va poyezd lokomotivlarini ulash								5			TKP xodimlari, lok.brig.
Avtotormozlarni to'liq tekshiruv, oxirgi signalning mavjudligini tekshirish, tormoz tekshiruv haqidagi VU-45 shakldagi ma'lumotnomani berish									10		DSP, lok.brig. TKP xodimi
Tarkib ostidan tormoz boshmoqlarini olish va poyezdlarni jo'natish										10	DSP, DSPP, lok.brig.
Umumiy davomiylik						90					

2- rasm. Stansiyada tuzilgan poyezdlarga jo'natish parkida ishlov berish jarayonlarining texnologik grafigi

Stansiyaning o'zida tuzilgan poyezd texnik va tijoriy jihatdan tayyorlanadi. Poyezd tarkibini texnik va tijoriy qayta ishlashga topshirishda stansiya navbatchisi mazkur yo'lni ARM DSP-ARM PTO monitorlari yordamida, ya'ni PTO operatori ARM PTO monitorida PSEZG komandasi bilan stansiya navbatchisidan ya'ni ARM DSP monitoridan tarkibni chegaralashni so'raydi. Stansiya navbatchisi o'z navbatida ARM DSP monitorida SEG komandasi bilan tarkibni chegaralaydi. Texnik va tijoriy jihatdan ko'rilganda VU-14 shaklidagi jurnaliga qayd qilinib stansiya navbatchisi va vagon ko'ruvchilari tomonidan imzo qo'yiladi. Texnik va tijoriy jihatdan nosoz bo'lgan vagonlar stansiyaning o'zida tuzilgan poyezdga qo'shilmaydi, ushbu vagonlarga umumiy ko'rinishdagi

dalolatnomalar tuzilib vagonlarga texnik xizmat ko'rsatish punkti va mintaqaviy temir yo'l uzelinig tegishli rahbariyatiga ma'lum qilinadi.

Tijoriy nosozligi mavjud vagonlar, ya'ni poyezd tarkibidan uzishni talab etmaydigan vagonlarning kamchiligi joyida bartaraf etiladi.

Vagonlarni texnik ko'rikdan o'tkazish vaqtida vagon ko'ruvchilari vagonning kuzov qismi, avtomat ulanish tizimi, tormoz tizimi va boshqa qismlarini ko'zdan kechiradi.

Hujjatlarni qayta ishlash operatori poyezdning natura varag'ini 3 nusxada tayyorlab 1 nusxasi poyezdning tashish hujjatlari uchun, 1 nusxasi lokomotiv mashinisti uchun va 1 nusxasi hisobot va ma'lumot uchun stansiyasining o'zida qoladi.

Hujjatlarni qayta ishlash operatori poyezdning natural varag'i va tarkibdagi vagonlar bilan solishtirib tashish hujjatlarini inkassator sumkasiga soladi. Tayyor bo'lgan poyezd hujjatlari lokomotiv mashinistiga DU-40 shaklidagi kitobga o'rnatilgan tartibda yozib, imzo qo'ydirib topshiradi.

Poyezdni jo'natgandan so'ng stansiya navbatchisi poyezdlar dispetcheriga quyidagi ma'lumotlarni beradi:

- Poyezdning vazni;
- Vagonlar soni;
- Tarkibga qo'shilgan va uzilgan vagonlar soni;
- MDX vagonlarining soni;
- Tarkibdagi qo'shilgan va uzilgan vagonlarning manzili [11].

Stansiyada tuzilgan poyezdga jo'natish parkida ishlov berish jarayonlarining texnologik grafigi yuqorida 2-rasmda keltirilgan.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu turdagi stansiyalarga qabul qilingan tranzit (og'irligi va uzunligi o'zgartirilmasdan qayta ishlanadigan, og'irligi va uzunligi oshgan) poyezdlari hamda terma poyezdlarni qayta ishlash texnologiyalari yuqorida ko'rsatilgan rasm ko'rinishida bo'lishi aniqlandi.

Quyidagi 1-jadvalda qabul qilish hamda jo'natish parkida poyezd turlari bo'yicha ularga ishlov berish jarayonlariga sarflangan vaqtning tarkiblarni texnik va tijoriy ko'riklardan o'tkazish vaqtiga bog'liqligi jadvali keltirilgan.


1-jadval

Poyezdlarga ishlov berish jarayonlariga sarflangan vaqtning tarkiblarni texnik va tijoriy ko'riklardan o'tkazish vaqtiga bog'liqligi jadvali

Poyezd turlari	Ishlov berish jarayonlariga sarflangan umumiy vaqt, daq.	Texnik va tijoriy ko'rikdan o'tkazish vaqti	%
Qayta ishlovga kelgan poyezd	~ 70	~ 55	78
Stansiyada tuzilgan poyezd	~ 90	~ 55	61
Og'irligi va uzunligi o'zgartirilmasdan qayta ishlanadigan tranzit poyezdi (lokomotiv almashinuvchi)	~ 90	~ 55	61
Og'irligi va uzunligi oshirilgan tranzit poyezdi (lokomotiv almashinuvchi)	~ 90	~ 40	44

1-jadvaldan ko'rish mumkinki, qabul qilish hamda jo'natish parkida poyezdlarga ishlov berish vaqtining asosiy ulushi tarkiblarni texnik va tijoriy ko'riklariga sarflanmoqda. Shu sababli temir yo'l transportida texnik va tijoriy ko'riklariga sarflanadigan vaqtlarni kamaytirishga xizmat qiladigan zamonaviy qurilma yoki texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.


Ananaviy hisoblash usullariga ko'ra bir nechta olimlar o'zlarining tarkiblarni ko'rikdan o'tkazish bo'yicha takliflarini bergan [12, 14]. Tarkibni ko'rikdan o'tkazishning o'rtacha vaqti, vagonlarning hisobiy soniga va tarkibni ko'rikdan o'tkazuvchi brigadalar soniga bog'liq ravishda quyidagi diagrammadan aniqlanadi.




3- rasm. Poyezd tarkibidagi vagonlar soniga bog‘liq ravishda tarkibni ko‘rikdan o‘tkazish vaqtini me‘yorlovchi diagramma

Munozara

Yevropa mamlakatlari hamda Rossiya temir yo‘llarida poyezd va vagonlarni avtomatlashtirilgan tijoriy ko‘rik tizimidan foydalaniladi. Ushbu tizimning qulayliklaridan biri tijoriy ko‘riklarni o‘tkazish bilan bir qatorda nogabartlik darajalarini aniqlaydigan qurilmalarning ham borligidadir. Poyezd va vagonlarni avtomatlashtirilgan tijoriy ko‘rik tizimi qurilmalarining joylashish sxemasi 4- va 5-rasmlarda keltirilgan.



4- rasm. PV ATKT (poyezd va vagonlarni avtomatlashtirilgan tijoriy ko‘rik tizimi) qurilmalarining joylashish sxemasi



5- rasm. ATKT (avtomatlashtirilgan tijoriy ko'rik tizimining kuzatish minorasi) qurilmalarining joylashish sxemasi

2018-yildan hozirgi kunga qadar “Rossiya temir yo‘llari” OAJ temir yo‘llarida tijoriy va texnik ko‘riklarni olib borish hamda tiklash ishlarida axborotlarni aniqliligini oshirish uchun keng miqyosda uchuvchisiz apparatlar (dronlar)dan foydalanib kelinmoqda. “Rossiya temir yo‘llari” OAJda “DJI Mavic 2 Enterprise Advanced” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan dronlar yordamida temir yo‘l transportida texnik va tijoriy ko‘riklarni olib borish ishlari ko‘rsatilgan (6-rasm).



6- rasm. “DJI Mavic 2 Enterprise Advanced” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan dronlar yordamida temir yo‘l transportida ish jarayonlarini olib borish

“DJI Mavic 2 Enterprise Advanced” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan uchuvchisiz apparatlari (dronlar) uchun po‘latni tanlashda asosiy parametrlar:

- bitta batareya to‘plamida parvoz davomiyligi 30 daqiqadan ortiqroq;
- ish harorati -10°C dan $+40^{\circ}\text{C}$ gacha;

– kamera o‘lchamlari kamida FHD (1920×1080), masshtablash linzasining mavjudligi (o‘zgaruvchan fokus uzunligi linzalari), gorizont va vertikal o‘qlar bo‘ylab tortishish yo‘nalishini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan giroskopik stabilizatsiyalangan suratga olish uskunasi;

- parvoz paytida to‘siqlar bilan to‘qnashuvning oldini oluvchi sensor tizimining mavjudligi;
- tezkor xodimlar soni bir kishidan ko‘p emas;
- tiklash poyezdlarida ishlatiladigan sun‘iy yo‘ldosh aloqa uskunalari bilan mosligi.

Shuningdek, poyezdlar va vagonlarda tijoriy ko‘rik ishlarini olib borish uchun “Sprut” 5327T texnik jihozlari to‘plamidan foydalanilmoqda. “Sprut” 5327T texnik jihozlari to‘plamining tajriba

namunasi Sverdlovsk temir yo‘lining yirik temir yo‘l stansiyalaridan birida real sharoitda (qish va bahor mavsumida, kunduzi va kechasi) sinovdan o‘tkazildi.



7-rasm. “Sprut” 5327T texnik jihozlari to‘plami va unda ish jarayonlarini olib borish

Temir yo‘l transportida “Sprut” 5327T texnik jihozlari to‘plami quyidagilarni ta‘minlashi kerak:

- tijoriy nosozliklarni aniqlash;
- vagon va konteyner tomLARining holatini aniqlash;
- qulflash-plombalash qurilmalarining mavjudligini va uning ishga yaroqliligini tekshirish;
- mahkamlash qurilmalari sonini to‘g‘ri hisoblash bilan vagonlarda yuklarni mahkamlash usullarini aniqlash;
- tijoriy ko‘rik natijalariga ko‘ra olingan foto va video materiallarni tashqi qurilmalarga jo‘natish, saqlash va shakllantirish;
- konteynerlarning tomLARiga, yuklarga o‘rnatil trafaretlar va belgilarning holati va ularning muvofiqligini tekshirish;
- vagonlardagi yot jismlarni aniqlash;
- ochiq vagonlarga yuklanagan yuklarning to‘liqligini tekshirish va hokazo

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar temir yo‘llarida foydalanib kelayotgan yuqoridagi kabi qurilmalar nafaqat ish jarayonlariga sarflanadigan vaqtlarni kamaytirishga, balki insonni mehnat sharoitidagi xavfli zonalaridan olib chiqishga ham xizmat qiladi. Yuqoridagi kabi innovatsion texnologiyalarni “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ temir yo‘l stansiyalariga joriy etish maqsadga muvofiq. Temir yo‘l stansiyalari ishini rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish mumkin:

- vagonlarning stansiyada turib qolmasligini oldindan bartaraf etish uchun tezkor rejalashtirish usulini amaliyotga joriy etish;
- stansiyalarda vagonlarning turib qolish vaqtlarini me‘yorlashtirish va oldindan bashorat qilishda zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash;
- yuqoridagi kabi innovatsion texnologiyalarni “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ temir yo‘l stansiyalariga joriy etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

- [1] Рогатнев, Н. Т. (2003). Проблемы применения силовых запорно-пломбировочных устройств для грузовых вагонов.

- [2] Бариев, Ф. Т. (2001). Разработка прогрессивной технологии оперативного контроля за коммерческими неисправностями вагонов на полигоне дороги.
- [3] Нутович, В. Е. (1999). Разработка информационных технологий актово-претензионной работы и оценки коммерческих рисков несохранности перевозимых грузов.
- [4] Debrezion, G., Pels, E., & Rietveld, P. (2007). The impact of railway stations on residential and commercial property value: A meta-analysis. *The journal of real estate finance and economics*, 35, 161-180.
- [5] Jumayev, S., Khudayberganov, S., Achilov, O., & Allamuratova, M. (2021). Assessment criteria for optimization of parameters affecting to local wagon-flows at railway sites. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 05022). EDP Sciences.
- [6] Butunov, D. B. “Ch” stansiyasida vagonlar yig „ilish jarayonini tadqiq etish.
- [7] Khudayberganov, S. K., & Suyunbayev, S. M. (2019). Results of application of the methods “Sologub” and Combinator sorting in the process of forming multi-group trains at the sorting station. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers*, 15(4), 62-72.
- [8] Распутина, Д. А., Зверева, В. А., & Власова, Н. В. (2022). Усовершенствование/модернизация грузовой и коммерческой работы на железнодорожном транспорте. In *Современные материалы, техника и технология* (pp. 316-319).
- [9] Кобдилов, М. А. (1996). Формирование границ районов оперативного управления перевозочным процессом на базе АРМ оперативных работников. In *Актуальные проблемы развития транспорта РК* (pp. 4-12).
- [10] Технологический процесс работы станции “Карши”. Т.: АО Узбекистон темир йуллари”, 2016. – 119 с.
- [11] Jumayev, S., Khudayberganov, S., Bashirova, A., & Akhmedova, M. (2023). Measures to reduce the loading of stations depending on their geoposition. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 371). EDP Sciences.
- [12] Suyunbayev, S. M., & Butunov, D. B. (2019). Development of classification of the reasons of losses in the work sorting stations. *DEVELOPMENT*, 8, 15-2019.
- [13] Saburov, M. B. (2021). Prognostication loading of goods on railway transport republic of Uzbekistan/Saburov MB, Butunov DB. *Universum*, 1, 36-42.
- [14] Dilmurod Butunov, Shuhrat Buriyev, Sardor Abdukodirov, Mafiratxon Tuxtaxodjayeva and Muslima Akhmedova. Modeling violations of the plan for the formation of freight trains for the effective organization of the transportation process. *E3S Web of Conferences* 389, 05026 (2023). 1-10. DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338905026>

UO‘K 66.10167

QORA SEDANA URUG‘I HUYAYRASI BUZILISHIGA HARORATNING TA‘SIRI BO‘YICHA MIKROSKOPIK TADQIQOTLAR

Boynazarova Yulduz Anvarovna¹ – assistent, ORCID: [0009-0006-7715-2231](https://orcid.org/0009-0006-7715-2231),
E-mail: yulduz.boynazarova@gmail.com

Farmonov Jasur Boyqarayevich² - texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
ORCID: [0000-0001-7519-4012](https://orcid.org/0000-0001-7519-4012), E-mail: farmonovjasur83@mail.com

¹Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh, O‘zbekiston

²Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM, Qarshi sh, O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Respublikamizda yog‘- moy ishlab chiqarish sohasida mavjud tizimlar katta miqdordagi, asosan bir turdagi xom ashyoni qayta ishlashga mo‘ljallangan. Sedana urug‘ini qayta ishlash imkoniyati mavjud emas. Sedana urug‘ini qayta ishlash uchun esa ishlab chiqarish quvvati kichik liniyalarni tashkil etish va moy ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan texnologik jarayonlarni optimallashtirishni talab etadi.*

Moyli xom ashyolarni quritish va mikroskop ostida tekshirish hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi. Moyli xom ashyo Respublikamizning Qashqadaryo viloyatida yetishtirilgan mahalliy xom ashyodan foydalanilgan. Shuningdek, tajriba ishlarida B-510PH-Biomolekulyar mikroskopidan va namlik miqdori aniqlash uchun KERN uskunasi foydalanilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra Sedana urug‘iga issiqlik bilan ishlov berilganda moy hujayrasi buzilishi o‘rganildi va sedana urug‘idan moy ishlab chiqarilganda issiqlik bilan ishlov berishning vaqti hamda haroratining maqbul varianti ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijasida sedana urug‘idan presslash usulida moy olish uchun, moy ishlab chiqarishning texnologik jarayoni optimallashtirilgan, ya‘ni presslashdan oldin sedana urug‘iga issiqlik bilan ishlov berilganda hujayra buzilishi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Qora sedana, harorat, mikroskop, namlik, quritish.

УДК 66.10167

МИКРОСКОПИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ВЛИЯНИЯ ТЕМПЕРАТУРЫ НА РАЗРУШЕНИЕ КЛЕТОК СЕМЯН ЧЕРНОЙ ТМИНЫ

Бойназарова Юлдуз Анваровна¹ – ассистент,

ORCID: [0009-0006-7715-2231](https://orcid.org/0009-0006-7715-2231), E-mail: yulduz.boynazarova@gmail.com

Фармонов Жасур Бойкараевич² – доктор философии по техническим наукам (PhD),
доцент, ORCID: [0000-0001-7519-4012](https://orcid.org/0000-0001-7519-4012), E-mail: farmonovjasur83@mail.com

¹Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

²Экономико-педагогический университет НОУ, г. Карши, Узбекистан

***Аннотация.** Существующие системы в сфере добычи масел в нашей республике рассчитаны на переработку больших объемов сырья, преимущественно одного вида. Семена черного тмина переработке не подлежат. Производственные мощности по переработке семян черного тмина требуют организации небольших линий и оптимизации технологических процессов, используемых при производстве масла.*

Маслянистое сырьё высушивали, исследовали и сравнивали под микроскопом. Масличное сырьё использовалось из местного сырья, выращенного в Кашкадарьинской области нашей

Республики. Также в экспериментальной работе использовался биомолекулярный микроскоп В-510РН -Биомолекулярный и оборудование KERN для определения влажности.

По результатам исследования изучен процесс распада масляных клеток при термической обработке семян черного тмина и разработан оптимальный вариант времени и температуры термообработки при получении масла из семян черного тмина.

В результате исследования оптимизирован технологический процесс производства масла для извлечения масла из семян черного тмина методом прессования, то есть, изучено повреждение клеток при термообработке семян черного тмина перед прессованием.

Ключевые слова: семена черного тмина, температура, микроскоп, влажность, сушка.

UDC 66.10167

MICROSCOPIC STUDIES ON THE EFFECTS OF TEMPERATURE ON BLACK CUMIN SEED CELL DEGRADATION

Boynazarova, Yulduz Anvarovna¹ – assistant, ORCID: [0009-0006-7715-2231](https://orcid.org/0009-0006-7715-2231),

E-mail: yulduz.boynazarova@gmail.com

Farmonov, Jasur Boykaraevich² - Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Associate professor(docent),

ORCID: [0000-0001-7519-4012](https://orcid.org/0000-0001-7519-4012), E-mail: farmonovjasur83@mail.com

¹Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan

²University of Economics and Pedagogy, Karshi city, Uzbekistan

Abstract. Existing systems in the field of cooking oil production in our republic are designed to process the large quantities of raw materials, predominately of one type. Black cumin seeds cannot be processed. Production facilities for processing of black cumin seeds require organization of small lines and optimization of technological processes used in the production of cooking oil.

The oily raw material was dried, examined and compared under a microscope. Oilseed raw materials were used from local raw materials grown in the Kashkadarya region of our Republic of Uzbekistan. Also in the experimental work, a B-510RN-Biomolecular microscope and KERN equipment were utilized to determine moisture of the content.

Based on the results of the study, the disintegration of oil cells during the heat treatment of black cumin seeds as well as the optimal option time and temperature of heat treatment was studied while obtaining oil from black cumin seeds.

As a result of the study, the technological process of cooking oil production was optimized for extracting oil from black cumin seeds by pressing method, which means that the cell damage during heat treatment of cumin seeds before pressing was studied.

Key words: black cumin seeds, temperature, microscope, humidity, drying.

Kirish

Bugungi kunda dunyoda chuchuk suv yetishmasligi va ekin maydonlarining qisqarishi sababli aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muammosi keskinlashmoqda. Texnologik jarayonlarni jadallashtirish, olinadigan mahsulot miqdorini ko'paytirish va sifatini oshirish, shu jumladan tibbiyot va sog'lom ovqatlanish maqsadlarida foydalaniladigan moyli xom ashyolarni qayta ishlash, polito'yinmagan yog' kislotalariga boy moylar ishlab chiqarish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda meva danaklaridan, maydalangan poliz ekinlari urug'laridan, bug'doy murtagi va kedr yong'oqlaridan moy ajratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada yog' va moylarning oksidlanishga barqarorligini oshirish, elektromagnit maydon va o'ta yuqori chastotali nurlar energiyasidan foydalanish bilan termik barqarorlikni ta'minlash, o'rni qoplanmaydigan polito'yinmagan yog' kislotalari

ishlab chiqarish, vitaminlar va mikroelementlardan foydalanishning inson sog'ligiga ta'sirini aniqlash yo'nalishlaridagi ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda mavjud tizimlar katta miqdordagi, asosan bir turdagi xom ashyoni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, ularda kam miqdordagi xom ashyo (masalan uzum, qovoq, qovun urug'i) ni qayta ishlash imkoniyati mavjud emas. Bunday xom ashyolarni qayta ishlash uchun esa ishlab chiqarish quvvati kichik (bir soatda bir necha kilogrammdan bir necha yuz kilogrammgacha) liniyalarni yaratishni talab etiladi.

Ma'lumki uzum, anor, qovun, tarvuz va qovoq kabi mahsulotlar urug'laridan olingan moylar o'zining shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Tarkibida 50 %gacha inson organizmi uchun juda muhim bo'lgan yog' kislotalarining mavjudligi ularning boshqa moylarga nisbatan ustunligi hisoblanadi.

O'z xususiyatiga ko'ra noan'anaviy moyli urug'lar: kunjut, zig'ir, sedana, poliz ekin urug'lari (tarvuz, qovun, qovoq, pomidor), meva danaklari (o'rik, shaftoli, olcha, olxo'ri va h.), danaklilar (yong'oq, bodom, yeryong'oq va h.) kabi moyli urug'lardan sovuq usulda presslash yo'li bilan moylar olinganda ular shifobaxsh hisoblanib, rafinatsiyalash jarayonini tashkil etish talab qilinmaydi. Bu moylar organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ko'ra, odatda rafinatsiyalanmasdan turib iste'molga yaroqli hisoblanadi [1].


Ilmiy manbalarga asoslanadigan bo'lsak, o'simlik moylari olish bo'yicha birqancha tadqiqotlar olib borilgan jumladan; ekstraksiya usullari, masalan, erituvchi ekstraksiyasi, qora sedana urug'idan sovuq presslash usulida moy olish, mikroto'lqinli pech yordamida ekstraksiya qilish, Soxlet ekstraksiyasi va superkritik usullarda moy olish keltirilgan [2-3]. Sovuq presslash usuli o'simlik moyi olishning eng qadimgi usullaridan biri bo'lib hisoblanadi, lekin hozirgi kunda ekstraksiya usulida ham moy ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratilmoqda [3]. Qora sedana urug'idan sovuq presslash usulida moy olish keng tarqalgan bo'lib, moy tarkibi suyuqlik xromatografiyasi (HPLC) usulida o'rganilganda atigi 0,5% dan kam TQ borligi aniqlandi [4]. Hozirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, TQ keng miqyosda davolovchi vosita sifatida ishlatilmoqda [5 – 7]. Hossen va boshqalar, va Ratheesh va boshqalar, qora sedana moyining yallig'lanishga qarshi ta'siri uning TQ mavjudligida ekanligini asosladi [2 - 5].

Noan'anaviy moyli urug'larning kimyoviy tarkibi va funksional xususiyatlari o'rganilmoqda. Qora sedana urug'lari, ko'pincha bengal tilida "Qora urug'lar" yoki "Kalojeera" nomi bilan tanilgan bo'lib, odatda Yaqin, Sharq va G'arb mamlakatlarida oziq-ovqat va dorivor maqsadlarda qo'llaniladi. Ushbu tadqiqotlarda asosan Bangladesh qora sedana urug'larining asosiy ozuqaviy moddalar tarkibi keltirilgan (1-rasm) [6].

Ushbu tajribalarda qora sedananing turli kasalliklarni davolashga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Qora sedana (*Nigella sativa L.*) urug'i butun dunyoda asrlar davomida hayvonlar va odamlarning turli kasalliklarini davolash uchun ishlatilgan. Hozirgacha ko'plab tadqiqotlar qora sedana (*Nigella sativa L.*) urug'i va uning asosiy faol moddasi timokinonning turli xil surunkali kasalliklarga, jumladan, nevrologik va ruhiy kasalliklarga, yurak-qon tomir kasalliklariga, saratonga, diabetga, yallig'lanish kasalliklariga va bepushtlikka qarshi juda samarali ekanligini ko'rsatdi. jumladan, bakterial, qo'ziqorin, parazitlar va virusli infeksiyalar tufayli turli yuqumli kasalliklar. Ushbu qimmatbaho urug'ning kuchli antioksidant xususiyatiga ham so'nggi paytlarda e'tibor qaratilmoqda [7].

An'anaga ko'ra, moylar urug'lardan sovuq presslash usulida (sovuq presslash ekstraksiyasi, CPE) moy olinadi va yaqinda geksan (HE) kabi organik erituvchilar qo'llanila boshlandi, chunki ular samaraliroq va yuqori moy chiqishini ta'minlaydi. An'anaviy sovuq presslash usulida moy olish yaxshi chunki moy tarkibida biologik faol moddalar saqlanib qoladi ammo, moy chiqishi kam. Shuning uchun ham erituvchi yordamida ekstraksiya usulida moy olishga e'tibor qaratilmoqda [8].

Yuqoridagi tadqiqotlarni tahlil qilib qora sedana urug'idan sovuq presslash usulida moy olish ustida tadqiqotlar olib borishni maqsad qildik va quyidagi tajriba ishlarini amalga oshirdik.



1-rasm. Qora sedana (*Nigella sativa* L.) urug‘i tarkibidagi funksional moddalar

Uslub va materiallar

Qora sedana (*Nigella sativa* L.) urug‘lari O‘zbekistonning Qarshi shahridagi Yerqo‘rg‘on bozorida dorivor o‘simliklar bozoridan xarid qilingan. Namunalar tozalangan, yuvilgan va havoda quritilgan. Nigella urug‘i germetik yopiq qoplarda saqlangan

B-510PH

Kuzatish rejimi: Yorqin maydon, faza kontrasti va qorong‘u maydon (quruq).

Bosh: trinokulyar (sobit 50/50), 30° egilish, 360° aylantirish.
O'quvchilar orasidagi masofa: 50 dan 75 mm gacha sozlanishi.
Diopterni sozlash: chap ko'zoynakda.
Ko'zoynaklar: WF10x/22mm, baland nuqtali ko'zoynak, rezina stakanli.
Minora: besh marta aylanadigan minora, rulmanli aylanish.

Maqsadlar:

- IOS W-PLAN PH 10x/0.25
- IOS W-PLAN PH 20x/0.40
- IOS W-PLAN PH 40x/0.65
- IOS W-PLAN PH 100x/1.25 (moyli)

Va bularning barchasi antifungal davolash bilan.

Namuna jadvali: stendsiz ikki qavatli mexanik bosqich, o'lchamlari 233x147mm, X-Y diapazoni 78x54mm.

Fokuslash: Koaksial qo'pol (sozlanishi mumkin bo'lgan kuchlanish) va linzalar va namunalar o'rtasidagi aloqani oldini olish uchun cheklovchi bilan nozik fokuslash mexanizmi.

Kondensator: fazali kondensator (10x/20x, 40x, 100x) qorong'i (quruq) va yorqin maydon bilan.

Uzatiladigan yorug'lik (Full Koehler turi): 3,6 Vt (6300 K) oq rangli X-LED³, xiralashgan. Ko'p pinli tashqi quvvat manbai 100-240V AC/6V DC.

Namlik tarkibi.


Namlik miqdori KERN yordamida aniqlandi.

KERN uskunasi 0.001 aniqlikda o'lchaydigan tarozi, termometr bilan jihozlangan bo'lib, namlikni foiz miqdorda ekranda ko'rsatadi.

Tajriba va natijalar

Qora sedana (*N. Sativa*) urug'iga issiqlik bilan ishlov berishning mikroskopik tadqiqi.








Qora sedana (*N. Sativa*) urug'iga issiqlik bilan ishlov berishning yog' hujayralarini buzilishiga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. 2-rasmning A-qismida qora sedana urug'iga issiqlik bilan ishlov berilmasdan mikroskopda ko'rilganda hujayra ichida moy buzilmasdan saqlangani kuzatildi.




2-rasm. Qora sedana (*Nigella sativa L.*) urug'iga issiqlik ta'sirining mikroskopda korinishi.

1-jadval

Issiqlik bilan ishlov berish haroratining 30 daqiqa issiqlik bilan ishlov berish vaqtida namlik yo‘qotilishi va sedana urug‘i yadrosining o‘zgarishi

№	1	2	3	4	5	6	7
Issiqlik bilan ishlov berish harorati, °C	Issiqlik bilan ishlov berilmagan	80	90	100	110	120	130
Namlikni chiqarish, %	-	1,01	1,80	2,05	2,20	2,44	2,56
Mikroskopda urug‘ yadrosining ko‘rinishi							

Qora sedana urug‘iga 30 daqiqa davomida issiqlik bilan ishlov berish va namlikni yo‘qotilishi 2-rasmning B-qismida 30 daqiqa davomida 80 °C dan 130 °C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida qora sedana urug‘iga issiqlik bilan ishlov berish jarayoni o‘rganildi, 80 °C haroratda urug‘ namligining 1,01% ga, 90 °C haroratda urug‘ namligining 1,80 % ga, 100 °C haroratda urug‘ namligining 2,05% ga, 110 °C haroratda urug‘ namligining 2,05% ga, 120 °C haroratda urug‘ namligining 2,44% ga va 130 °C da 2,56% ga kamayganligini ko‘rsatdi (1-jadval). 1-jadvalning mikroskopda urug‘ yadrosining ko‘rinishi qismida ko‘rinib turibdiki, sedana urug‘iga to‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqlik bilan ishlov berilganda 100 °C haroratda urug‘ namligining 2,05% ga kamayganda urug‘ hujayrasi buzilib moy maksimal chiqish holati kuzatilgan. Buni 3-rasmda ham ko‘rishimiz mumkin. Harorat ko‘tarilishi bilan qora sedana urug‘i yadrosida kuyish sodir bo‘lgan bunda urug‘ tarkibidagi biologik faol moddalar parchalanishga olib keladi.



3-rasm. Qora sedana urug‘iga 30 daqiqa davomida issiqlik bilan ishlov berish va namlikni yo‘qotilishi

Biz kelgusi tadqiqot ishlarimizda qora sedana urug'iga issiqlik bilan 100 °C haroratda, 30 daqiqa ishlov berib laboratoriya qurilmasida moy olishni rejalashtirdik.

Xulosa

Ushbu maqolada qora sedana (*Nigella sativa L.*) urug'i, uni tarkibidagi foydali komponentlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, sedana urug'iga issiqlik bilan ishlov berilganda urug' hujayrasi buzilishi bo'yicha, bir qancha tajribalar olib borildi va ijobiy natijalarga erishildi. Tajribalarda qora sedana urug'iga issiqlik bilan ishlov berishning namlikni chiqishiga, hamda issiqlik bilan ishlov berish haroratining urug' yadrosi hujayrasini buzilishiga ta'siri o'rganildi. Bunda 30 daqiqa davomida 80°C dan 130°C gacha bo'lgan harorat oralig'ida qora sedana urug'iga issiqlik bilan ishlov berish jarayoni o'rganildi. Sedana urug'iga to'g'ridan-to'g'ri 100°C haroratda issiqlik bilan ishlov berilganda urug' namligi 2,05% ga kamaydi va urug' hujayrasi buzilib maksimal moy chiqish holati kuzatildi, hamda bu maqbul rejim deb tanlandi.

Mahalliy sedana urug'ini qayta ishlashni yo'lga qo'yilsa, import o'rnini bosuvchi yangi turdagi inson organizmi uchun foydali bo'lgan biologik mahsulot turi yaratiladi, bu esa iqtisodiy jihatdan samaradorlik kasb etadi.

Adabiyotlar

- [1] Farmonov J.B., Suvanova F.U. "O'zbekiston respublikasida yetishtiriladigan moyli xomashyo turlari va ularni qayta ishlash zarurligi", Nauchno - texnicheskiy jurnal, № 4/2020 C.-206-211
- [2] Badary, O.A., Taha, R.A., Gamal al-Din, A.M. va Abdel-Vahab, M.H. (2003). "Timokinon kuchli superoksid anionini tozalash vositasidir", Drug and Chemical Toxicology, 26, 87-98. <https://doi.org/10.1081/DCT-120020404>
- [3] Bourgou, S., Ksouri, R., Bellila, A., Skandrani, I., Falleh, H. va Marzouk, B. (2008). "Tunis *Nigella sativa L.* kurtaklari va ildizlarining fenolik tarkibi va biologik faolligi", CR Biol.,331: 48-55.
- [4] Khader, M., Bresgen, N. va Eckl, PM (2010). "Tanlangan Falastin dorivor o'simliklaridan etanolik ekstraktlarning antimutagen ta'siri", J. Etnofarmakol.,127: 319-324.
- [5] Al-Ali, A., Alkhawajah, AA, Randhawa, MA va Shaykh, NA (2008). "Timokinonning og'iz va intraperitoneal LD50, faol prinsipi *Nigella sativa*, sichqon va kalamushlarda", J. Ayub. Med. Koll. Abbotobod.,20: 252-257.
- [6] Mamun, MA va Absar, N. "Bangladesh etishtiriladigan qora sedana urug'larining asosiy ozuqaviy tarkibi - va uning moyining fizik-kimyoviy xususiyatlari", Xalqaro oziq-ovqat tadqiqotlari jurnali 25(6): 2634-2639 (dekabr 2018)
- [7] Melaku Tafese Awulachew "Qora sedana (*Nigella sativa L.*): Hayvonlar va inson kasalliklariga ta'siri va ilmiy ishlanmalariga sharh", Int J Med Biotechnol Genetika. 2021;8(11): 64-72.
- [8] O.Kola "Short note- Comparative analysis of physicochemical characteristics and fatty acid composition of seeds of black cumin, poppy, safflower and cumin", July 2015 Rivista Italiana Delle Sostanze Grasse 92(3):211-217

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI / AGRICULTURAL SCIENCES

UO‘K: 634.42.632.116.632.3

SOYA NAVLARINNG SEPTORIOZ (*SEPTORIA GLYCINES.H*) KASALLIKLARI BILAN KASALLANISH DARAJASI

Toshmetova Feruza Nasirulloevna –doktorant (PhD),

ORCID: 0009-0007-2258-0383, E-mail: feruz.toshmetova@mail.ru

Meyliyev Akmal Xushvaqtovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim,

ORCID: 0000-0002-7127-1946, E-mail: akmal_8417@mail.ru

Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

Annotatsiya. *Dunyoda soya ekini keng tarqalgan qadimiy ekinlardan biri hisoblanib, hozirgi kunda vaqtda soya ekini 91 mamlakatda, 118 mln.ga maydonda yetishtiriladi. Asosiy ishlab chiqaruvchilar AQSh 70-90 mln.tonna, Argentina 50 mln.tonna, Xitoy 20-40 mln.tonna, Hindiston 6-7 mln.tonna, Rossiya 7-8 mln.tonnani tashkil etsada, 1 mln.tonnadan kam hosil oladi. AQShda yiliga 100 mln. tonnaga yaqin soya yetishtiriladi, ekin maydoni 30,9 mln.ga ni tashkil qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda takroriy ekin-dukkakli don ekinlari maydoni tobora kengayib bormoqda. Bir jihatdan, davlatimizning don mustaqilligini mustahkamlasa, ikkinchidan, g‘alladan bo‘shagan yerlarga takroriy ekinlar ekib, mo‘l hosil yetishtirish imkoniyatini beradi. Respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash muammosini hal qilish va aholini oqsil miqdori yuqori bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash hozirgi jahon siyosatida ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu muammoni samarali hal etishning yo‘nalishlaridan biri-qimmatli oqsilga boy soya ekinini yetishtirishni ko‘paytirish, shuningdek uni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘lamini oshirishdan iboratdir. Lekin, keyingi yillarda respublikamizda soya yetishtirish ko‘lami ortgan bo‘lsada, hosildorlik yetarli darajada bo‘lmayotganligi sababli, iqtisodiy samaradorlikka erishilmayapti. Chunki, respublikamiz sharoitida soyada uchraydigan zamburug‘li kasalliklar o‘rganilmaganligi va ularning hosildorlikka zarar yetkazishi isbotlanmagan. Mazkur maqolada, soya ekinida uchraydigan zamburug‘li kasalliklarning rivojlanishi aniqlangan va ularga fungitsidlarning ta‘siri bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Septoria glycines H., septorioz, kasallik, kasallanish darajasi, fungitsid, soya, variant, preparat.*

УДК: 634.42.632.116.632.3

СТЕПЕНЬ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ БОЛЕЗНЯМИ СЕПТОРИОЗА (*SEPTORIA GLYCINES H.*) СОПТОВ СОИ

Тошметова Феруза Насируллоевна – докторант (PhD),

ORCID: 0009-0007-2258-0383, E-mail: feruz.toshmetova@mail.ru

Мейлиев Акмал Хушвактович – доктор сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник, ORCID: 0000-0002-7127-1946, E-mail: akmal_8417@mail.ru

Научно-исследовательский институт земледелия в южных районах, г. Карши, Узбекистан

Аннотация. *Соя считается одной из самых распространенных древних культур в мире, и в настоящее время соя выращивается в 91 стране на 118 млн га. Основные производители: США 70-90 млн тонн, Аргентина 50 млн тонн, Китай 20-40 млн тонн, Индия 6-7 млн тонн, Россия 7-8 млн тонн, но его урожайность составляет менее 1 млн тонн. В США выращивают около 100 млн тонн сои в год, посевная площадь составляет 30,9 млн га. Также в нашей стране все больше расширяются площади повторных посевов бобовых культур. С одной стороны, это укрепит зерновую независимость нашей страны, а с другой стороны, даст возможность засеять повторные посевы на пустующих от зерна землях и вырастить*

богатый урожай. Решение проблемы обеспечения продовольственной безопасности в республике и обеспечения населения продуктами питания с высоким содержанием белка становится особенно актуальным в современной мировой политике. Одним из путей эффективного решения этой проблемы является увеличение выращивания сои, богатой ценным белком, а также увеличение масштабов производства продуктов ее переработки. Однако, хотя масштабы выращивания сои в республике в последние годы увеличились, экономическая эффективность не достигается из-за недостаточной урожайности. Потому что в условиях нашей республики грибковые заболевания сои не изучены и не доказано, что они вредят урожайности. В данной статье описано определение развитие грибковых заболеваний сои и действие на них фунгицидов.

Ключевые слова: *Septoria glycinis H.*, септориоз, болезнь, степень заболеваемости, фунгицид, соя, вариант, препарат.

UDC: 634.42.632.116.632.3

INCIDENCE OF SEPTORIA (*SEPTORIA GLYCINES H.*) DISEASES IN SOYBEAN VARIETIES

Toshmetova, Feruza Nasirulloevna – Doctoral student (PhD),

ORCID: 0009-0007-2258-0383, E-mail: feruz.toshmetova@mail.ru

Meyliyev, Akmal Xushvaktovich – Doctor of Agricultural Sciences (DSc), senior researcher,

ORCID: 0000-0002-7127-1946, E-mail: akmal_8417@mail.ru

Research Institute of Agriculture in the southern Regions, Karshi city, Uzbekistan

Abstract. *Considered one of the most widespread ancient crops in the world, soybeans are currently grown in 91 countries covering 118 million hectares. Main producers: USA 70-90 million tons, Argentina 50 million tons, China 20-40 million tons, India 6-7 million tons, Russia 7-8 million tons, but its yield is less than 1 million tons. In the United States, about 100 million tons of soybeans are grown per year, the sown area is 30.9 million hectares. Also in our country, the areas of re-cropping of legumes are increasingly expanding. On the one hand, this will strengthen the grain independence of our country, and on the other hand, it will provide an opportunity to re-sow crops on lands empty of grain and grow a rich harvest. Solving the problem of ensuring food security in the republic and providing the population with food with a high protein content is becoming especially relevant in modern world politics. One of the ways to effectively solve this problem is to increase the cultivation of soybeans, rich in valuable protein, as well as to increase the scale of production of its processed products. However, although the scale of soybean cultivation in the republic has increased in recent years, economic efficiency is not achieved due to insufficient yields. Because in the conditions of our republic, fungal diseases of soybeans have not been studied and it has not been proven that they harm yields. This article describes the definition of the development of fungal diseases of soybean and the effect of fungicides on them.*

Keywords: *Septoria glycinis H.*, septoria, disease, incidence rate, fungicide, soybean, option, drug.

Kirish

Dunyoda soya ekini keng tarqalgan qadimiy ekinlardan biri hisoblanib, hozirgi kunda vaqtda soya ekini 91 mamlakatda, 118 mln.ga maydonda yetishtiriladi. Asosiy ishlab chiqaruvchilar AQSh 70-90 mln.tonna, Argentina 50 mln.tonna, Xitoy 20-40 mln.tonna, Hindiston 6-7 mln.tonna, Rossiya 7-8 mln.tonnani tashkil etsada, 1 mln.tonnadan kam hosil oladi. AQShda yiliga 100 mln. tonnaga yaqin soya yetishtiriladi, ekin maydoni 30,9 mln.ga ni tashkil qiladi. Xitoy hozirda soyaning eng yirik xaridori hisoblanadi.

Respublikamizda o'simliklarni himoya qilish dehqonchilik tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, ekinlarni zararli organizmlardan ishonchli himoya qilish, patogenlar ta'sirida hosilning nobud

bo'lishining oldini olishga qaratilgan. Ushbu muammoni hal qilishda o'simliklarni himoya qilish uchun turli usullar qo'llaniladi, ulardan foydalanish soni va intensivligi ekinlarni yetishtirish texnologiyalarining umumiy rivojlanish darajasini belgilaydi. Qishloq xo'jaligida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun, soya ekinini asosiy va takroriy ekin sifatida soya ekinini ekib parvarishlash hamda hosildorligini oshirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, soya donini yetishtirishda soyaning septorioz (*Septoria glycines* H.) kasalliklarining don hosildorligining 30-60% gacha yo'qotilishiga va donning oqsil va yog'lilik darajasiga jiddiy zarar keltirmoqda.

Uslub va materiallar

Soyaning Oyjamol, To'maris-MMAN navlari septorioz kasalligining patogenlari, septorioz kasalligiga qarshi kurashda qo'llaniladigan Alto super, Tiltazol, Bikanozol, ALTUS Duo fungitsidlaridan foydalanildi.

Tadqiqotlarda laboratoriya va dala tajribalarini o'tkazishda kasalliklar tarqalishini aniqlashda B.A.Hasanov, *Septoria glycines*. H. turkumi turlari qo'zg'atadigan kasalliklar tarqalishi va zararlash darajasini o'rganishda Dementeva usullari, dala sharoitida sun'iy infeksiya yuqtirish uchun inokulyum tayyorlash hamda *Septoria glycines*. H. kasalligi bilan kasallanish darajasini aniqlashda I.N.Novosadov, L.K.Dubovskaya, Yu.V.Poljievlarining usullaridan foydalanildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi

Dunyoda soyaning zamburug'li kasalliklari bo'yicha Hind olimlaridan Dr. Kumar Sanjeev, Tanti Bhaben, Rani Anita kabi olimlar markerlardan foydalangan holda sariq mozaika virusiga qarshi turlicha bo'lgan soya genotiplarining genetik xilma-xilligini baholashgan, Ruminiyalik olim Gheorghe Balasu Alexandru (*Fusarium oxysporum* F) ning biologik o'sish parametrlarini aniqlagan, Cui Jiaqi soya o'simligi ildizpoyasining ildiz chirish kasalligini tuproqdagi patogen zamburug'lar keltirib chiqarishini, Rossiyalik olimlardan V.I.Dubovskaya soya zararkunandalari va soya ekinlarida fitosanitariya tizimini optimallashtirgan, M.A.Vishnyakova, L.F.Ashmarina G'arbiy Sibirdagi qishloq xo'jaligi ekinlarining fuzarioz qo'zg'atuvchi zamburug'larining tarkibini aniqlaganlar va ularga qarshi kurash choralarini o'rganganlar. Respublikamizda bug'doyda uchraydigan fuzarioz kasalliklarining tur tarkibi aniqlash va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish bo'yicha N.Xaytbaeva, M.Zuparov, A.Sheraliev, B.Xasanov, U.Raximovlar tadqiqotlar olib borishgan.

Biroq, keyingi yillarda Respublikamizda ham soya yetishtirishga katta e'tiborini qaratgan holda soya ekini ekib parvarishlanmoqda. Lekin, soyaning septorioz kasalligining tur tarkibi, rivojlanishi patogenlik xususiyatlari, don hosildorligi va tarkibiga ta'siri o'rganilmagan.

Tadqiqot natijalari

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutida 2021-2023 yillarda "Soyaning zamburug'li (fuzarioz va septorioz) kasalliklarining soya hosil elementlariga ta'siri va ularga qarshi kurash choralarining samaradorligi" mavzusida tadqiqotlar olib borildi. Unga ko'ra, soyaning "To'maris-MMAN" va "Oyjamol" navlarida Septorioz (*Septoria glycines*.H.) kasalligi bilan kasallanish darajalari, tadqiqot olib boriladigan dalalarda septorioz kasalligining tarqalishi, rivojlanishi va o'simlikka ta'sirini hisobga olish orqali aniqlandi hamda kasallikka qarshi kimyoviy vositalar Etolon (Alto super) 250 g/l, Tiltazol 200 g/l, Bikanozol 250 g/l va ALTUS Duo 250 g/l preparatlari bilan ishlov berilib, barglarning zararlanish darajasiga ta'siri o'rganildi.

Tajriba maydonida septorioz kasalligini aniqlash va kurash choralarini qo'llash uchun har 7, 14, 21 kunlarda kuzatuvlar olib borilib, tajribaning har bir variantidan diagonal yo'nalishi bo'yicha 10 ta o'simlik kuzatildi va ularda septorioz kasalligining zararlash darajasi hisobga olindi (jadval).

Soyaning "To'maris-MMAN" navida Nazorat (dorilanmagan) variantda o'simlik barglarining zararlanishi 45% ni tashkil qilgan bo'lsa, Etolon (Alto super) 250 g/l preparati qo'llanilgan variantda zararlanish darajasi 33,2% bo'lganligi aniqlandi. Bikanozol 250 g/l qo'llanilgan variantda zararlanish bir muncha pasayganligi kuzatilib, 29,5% bo'lganligi aniqlangan bo'lsa, Altus Duo 250 g/l

qo'llanilgan variantda kasallanish darajasi 20,2% ekanligi qayd etildi. Eng past ko'rsatkich Tiltazol 200 g/l qo'llanilgan variantda qayd etilib, zararlanish darajasi 14,3% tashkil etdi.

Jadval

Soyaning To'maris-MMAN navida Septorioz (*Septoria glycines.H.*) kasalligi bilan kasallanish darajasi

№	Variantlar	Sarf me'yori	Barglarning zararlanish darajasi, %				Barglar o'rtacha kasallanishi, %
			1-3 barg	6 barg	10 barg	14 barg	
To'maris-MMAN navi							
1	Nazorat (Dorilanmagan)	0	5	40	60	75	180:4=45
2	Etolon (Alto super)	250 g/ga	3	25	45	60	133:4=33,2
3	Tiltazol	200/ga	0	5	18	20	43:3=14,3
4	Bikanozol	250 g/ga	3	25	35	55	118:4=29,5
5	ALTUS Duo	250 g/ga	1	15	30	35	81:4=20,25
Oyjamol navi							
6	Nazorat (Dorilanmagan)	0	2	35	55	80	172:4=43
7	Etolon (Alto super)	250 g/ga	1	28	38	56	123:4=30,7
8	Tiltazol	200/ga	0	4	16	21	41:3=13,6
9	Bikanozol	250 g/ga	2	26	38	54	120:4=30,0
10	ALTUS Duo	250 g/ga	0	8	19	27	54:4=18,0

Xuddi shu ko'rsatkichlar bo'yicha soyaning Oyjamol navida Septorioz (*Septoria glycines.H.*) kasalligiga bilan kasallanish darajasi o'rganilganda, Nazorat (dorilanmagan) variantimizda barglarning zararlanishining o'rtacha qiymati kuchliroq bo'lganligi aniqlanib, 43% ekanligi kuzatilgan bo'lsa, Etolon (Alto super) 250 g/l qo'llanilgan variantda 30,7% va Bikanozol 250 g/l variantida 30,0% zararlanish aniqlandi. Nisbatan pastroq ko'rsatkichlar Altus Duo 250 g/l qo'llanilgan variantda 18% va eng past ko'rsatkich Tiltazol 200 g/l qo'llanilgan variantda 13,6% ekanligi tadqiqotlarimiz davomida aniqlandi.

Munozara

Soya-uchta eng muhim qishloq xo'jaligi ekinlaridan biri bo'lib, zamonaviy dunyoning agrar sohasidagi o'zgarishlarning markazida bo'lib, sayyoramizning o'sib borayotgan aholisi uchun oqsil etishmasligi muammosini hal qiladi [1]. Soya moyida to'yinmagan moy kislotalari 80-94% ni, yarimto'yinmaganlari esa 6-22% ni tashkil etadi, uglevodlar deyarli to'liq eruvchan qandlardan iborat. Aminokislotalar tarkibi bo'yicha soya oqsili sut, tuxum va go'sht oqsiliga yaqin turadi [2]. Soya- jahon ahamiyatiga ega bo'lgan eng muhim madaniy o'simliklardan biridir [3].

Zamburug'lar hayotida yetarli miqdorda issiqlikning bo'lishi, ularning yashovchanligini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi. Har bir turning faol hayoti uchun ma'lum bir harorat chegaralari mavjuddir. Zamburug' hayotida metabolitik jarayonlarning eng faollashuvi optimal haroratda kuzatiladi [4]. A.Sh.Sheraliev, R.K.Sattarova va U.X.Raximovlarning ta'kidlashicha, kasallikni keltiradigan iqtisodiy zararini, kasallikka o'simlikning immunitet xususiyatlarini, kasallikning kelib chiqishini oldindan aniqlash va unga qarshi kurash choralarini belgilab, kasallangan o'simliklarni sog'lomlashtirish yo'llarini o'rgatish asosida ulardan mo'l hosil olishni o'rgatadi [5]. Fitopatogen zamburug'lar turlarini aniqlashning amaliy ahamiyati nimada? O'simlik to'qimalarida kasallik qo'zg'atuvchisini rivojlanishini yashirin davrini aniqlash, hamda kimyoviy himoya vositalarini o'z vaqtida qo'llash muhim ahamiyatga ega [6].

Septorioz- o'ta makkor kasallik bo'lib, etiologiya va epifitologiyaning murakkabligi va ko'p omilli jarayonlari bilan tavsiflanadi. Kasallikni nomukammal zamburug'lar guruhiga kiruvchi p.Septoria zamburug'i keltirib chiqaradi [7]. Septorioz infeksiyasining asosiy manbai o'simlik qoldiqlari va urug'lar hisoblanadi. Shu munosabat bilan erga minimal ishlov berish texnologiyalariga o'tish, o'simlik qoldiqlarini erga qoldirish kasallikning tarqalishiga xizmat qiladi. Septorioz bilan o'simliklarni zararlanishi 6 soatlik nam davrni talab qiladi. Spora o'sishi uchun eng qulay harorat

+15...+25 °C, lekin kasallik +5 dan +35 °C gacha rivojlanishi mumkin. Inkubatsiya muddati ob-havo sharoitlariga bog‘liq va 10-20 kun davom etadi. Sovuq havo kasallikning tarqalishiga yordam beradi. Yuqori harorat va havoning o‘ta quruqligida piknosporalarning hayotiyliigi 3 oydan ortiq davom etishi mumkin [8].

Soya ekilgan maydonlarda o‘simlikning septorioz (qo‘zg‘. *Septoria glycinis Hemmi*) bilan zararlanishi har yili qayd etiladi. Asosan o‘simlikning pastki va o‘rta yarusidagi barglari kuchliroq zararlanadi, epifitotiya tarqalgan yillarda esa er ustki organlarining barchasi kasallanadi. Namgarchilik yillarda kasallikka sezgir navlarda kasallanish darajasi 50-75% ga etadi [9]. Kasallikning yuqtirilgan paytdan boshlab kasallikning vizual belgilarining namoyon bo‘lishigacha bo‘lgan rivojlanish davri inkubatsiya davri hisoblanadi. Uning davomiyligi, birinchi navbatda, patogen turiga, shuningdek, patogen rivojlana olmaydigan minimal harorat chegarasiga bog‘liq [10].

Fungisidlar bilan davollash kasalliklarga qarshi kurashning eng samarali usuli hisoblanadi. Kasallik qanchalik erta aniqlansa, unga qarshi kurash shunchalik samarali bo‘ladi [11].

Xulosa

Soyaning Septorioz (*Septoria glycinis.H.*) kasalligiga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda, kasallikka qo‘llanilgan fungisidlar Bikanozol 250 g/l, Altus Duo 250 g/l variantlarda, soyaning Oyjavol va To‘maris-MMAN navlari 13,6-33% gacha zararlanish aniqlandi.

Soyaning vegetatsiya davrida kuzatiladigan zamburug‘li Septorioz (*Septoria glycinis.H.*) kasalligiga kasallik boshlanish davrida Bikanozol 250 g/l, Altus Duo 250 g/l fungisidlarini belgilangan me‘yorlarda qo‘llash tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

- [1] Зыков С.А. “Соя: главные составляющие большого урожая” // Р.: “Эффективное растениеводство”. 2019 г. №3. – С. 9.
- [2] Abitov I., Musirmanov D., “Soya nav va namunalarining qimmatli xo‘jalik boshlang‘ich manbalari” // T.: Qishloq xo‘jaligi jurnali. “Agro ilm” ilovasi. 2017 y №4. – B. 25.
- [3] Сырмолот О.В., “Болезни сои и биологические меры борьбы” // Р.: “Сельскохозяйственный журнал”. 2014 г. №7 (2). – С. 401.
- [4] Эсков И.Д., “Паразитизм и специализация у грибов. Пути проникновения грибов в растения” // Р.: Саратов, Ж. “Защита растений” 2014 г. – С. 22-26
- [5] Sheraliev A.Sh., Sattarova R.K., Raximov U.X. “Soya kasalliklari” // T.: “Qishloq xo‘jalik fitopatologiyasi”. 2008 y. – B. 58.
- [6] Мироненко Н.В., “Современные методы молекулярной диагностики фитопатогенных грибов”. / Р.: Санкт-Петербург. «Материалы международной научной конференции проблемы микологии и фитопатологии в ХХИ веке». 2-4 октября 2013 г. – С-184.
- [7] Санин С.С., Корнева Л.Г., Полякова Т.М., “Прогноз риска развития эпифитотий септориоза листьев” // Р.: Москва. Ж. “Защита и карантин растений”. 2015 г. №3. – С. 33.
- [8] Кекало А.Ю., Немченко В.В., Заргарян Н.Ю., Сыпышева М.Ю., “Защита зерновых культур от болезней” // Р.: Куртамыш. “Монография”. 2017 г. – С. 4-30.
- [9] Горобей И.М., Ашмарина Л.М., Мармулева Э.Ю., “Вредные и полезные организмы в посевах сои в лесостепи Западной Сибири” // Р.: Москва. Ж. “Защита и карантин растений” 2012 г. №11. – С. 44.
- [10] Эсков И.Д., “Паразитизм и специализация у грибов. Пути проникновения грибов в растения” // Р.: Саратов, Ж. “Защита растений” 2014 г. – С. 22-26
- [11] Вошедский Н.Н., Илинская И.Н., Кулыгин В.А., Паско С.В., Гаевая Э.А., Федюшкин А.В., Рычкова М.Н., Тарадин С.А., Нежинская Э.Н., Мищенко А.В., “Эколого-экономические особенности технологии возделывания нового сорта нута Донплаза в условиях плакорных и склоновых земель Ростовской области” // Р.: Ростов. “Монографии”. 2020 г. – С. 37-38.

UDK:636.082; 638.2

TUT IPAK QURTINING LICHINKALIK DAVRI VA PUSHTDORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Xudjamatov Safarali Xasanboy o'g'li – doktorant (DSc), qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim, ORCID: 0000 0003 4306 6862,
E-mail: alixudjamatov92@gmail.com

Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent sh., O'zbekiston

Аннотация. Ushbu maqolada tut ipak qurtining 6 ta zot va 4 ta seleksion tizmalarining lichinkalik davri davomiyligi va tuxum mahsuldorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganilgan. Tadqiqot materiallaridagi zot va tizimlar rivojlanish tezligi bo'yicha gradatsiyalarga ajratilgan va har bir gradatsiya bo'yicha qiyosiy baholangan. Olingan natijalar tahliliga ko'ra qurtlarning lichinkalik davri tezligi bilan tuxum mahsuldorligi o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjudligi aniqlanmoqda.

Калит so'zlar: tut ipak qurti, liniya, zot, tuxum, bog'liqlik.

УДК:636.082; 638.2

ВЗАИМОСВЯЗЬ ГУСЕНИЧНОГО ПЕРИОДА С ПЛОДОВИТОСТЬЮ ГУСЕНИЦ ШЕЛКОПРЯДА

Худжаматов Сафарали Хасанбой угли – докторант (DSc), доктор философских наук (PhD) по сельскохозяйственным наукам, старший научный сотрудник, ORCID: 0000 0003 4306 6862, E-mail: alixudjamatov92@gmail.com

Научно-исследовательский институт шелководства, г. Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной работе изучена взаимосвязь продолжительности личиночного периода с признаками яйца продукции 6 пород и 4 селекционных линий тутового шелкопряда. Породы и линии разделены на градации по скорости развития и проведена сравнительная оценка показателей в градациях. По анализу полученных результатов выявлена отрицательная зависимость между скоростью личиночного периода и репродуктивными свойствами.

Ключевые слова: тутовый шелкопряд, линия, порода, яйцо, корреляция.

UDC 636.082; 638.2

RELATIONSHIP BETWEEN LARVAL PERIOD AND FERTILITY OF MULBERRY SILKWORM

Khudjamatov Safarali Khasanboy ugli - Doctoral student (DSc), Doctor of Philosophy (PhD) in agricultural sciences, senior researcher, ORCID: 0000 0003 4306 6862,
E-mail: alixudjamatov92@gmail.com

Scientific institute of silk, Tashkent city, Uzbekistan

Abstract. In this work a correlation between the duration of larval period and signs of eggs laying of 6 races and 4 selectional lines of silkworm was studied. Races and lines were divided into gradations according to the speed of development and a comparative evaluation of indexes in

gradations was made. According to the analysis of obtained results a negative correlation between the speed of larval period and reproductive characteristics was defined.

Key words: *silkworm, line, breed, egg, correlation.*

Kirish

Bugungi kunda Respublikamizda 5 ta naslchilik va 12 ta urug'chilik korxonasi o'z faoliyatini olib bormoqda. Naslchilik korxonalarining urug' tayyorlash quvvati mahalliy urug'chilik korxonalarini uchun yetarli elita urug' yetkazib berishga imkon bermaydi. Natijada, mahalliy urug'chilik korxonalarini xorijdan naslli urug' olib kelishga majbur bo'lmoqda. Xorijdan keltirilayotgan elita va sanoat urug'larining sifat ko'rsatkichlari hamda tuxumdan qurtlarni ochib chiqishi, biologik, texnologik ko'rsatkichlari, eng asosiysi qurtlarning lichinkalik davri qisqa bo'lishi bilan mahalliy zot va duragaylardan ustunlik qilmoqda. Shunday ekan, lichinkalik davrini qisqartirish hamda sermahsul zot va duragaylar yaratish ipakchilik ilmining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Olimlarning fikricha, hayot sikli uzoq muddatni tashkil etuvchi populyatsiyalarda mahsuldorlik ko'rsatkichlari oshishi kuzatilar ekan. Ammo, xorij tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, seleksiyaning maxsus usullarini qo'llab tez o'sib rivojlanuvchi hamda mahsuldorligi yuqori zot va duragaylar yaratish mumkin ekan. Shundan kelib chiqib, ipakchilik sohasi rivojining hozirgi bosqichida hayot sikli qisqa va tez pilla o'raydigan zotlarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish genetik va seleksion tadqiqotchilarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Tut ipak qurtining o'sishi, rivojlanishiga turli xil omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu borada tadqiqotchi-olimlar quyidagicha izoh berishgan. Tut ipak qurti poykiloterm hasharot bo'lib noqulay sharoitga tushib qolsa, rivojlanishi sekinlashadi va iqtisodiy ahamiyatga molik bo'lgan barcha ko'rsatkichlari pasayishi kuzatiladi [1]. Maysor markaziy ipakchilik-ilmiiy tadqiqot markazida Hindiston va Yaponiyalik olimlar [2] Hindistonning mashhur "CSR2 x CSR4" bivoltin duragayiga harorat va namlikni qurtlar o'sishi hamda rivojlanishiga ta'sir darajasini tadqiq etganlar. Ushbu tadqiqotda ipak qurtlari 25 °C harorat va 70% namlikdagi sharoitda parvarishlanganda, lichinkalarning beshinchi yoshi 8 kun davom etishi kuzatilgan. [3] lar o'z tadqiqotlarida tut ipak qurtining lichinkalarini 5-yosh 1-kunidan 7-kuniga qadar, ipak bezidagi ipak miqdorini qay darajada o'zgarishini aniqlaganlar. [4] o'zining tadqiqot ishi doirasida olib borgan tadqiqotlarida, tutning yangi seleksion nomerlari bilan tut ipak qurtining "Ipakchi 1 x Ipakchi 2" sanoat duragay qurtlarini parvarishlagan. Tadqiqotchining xulosasiga ko'ra, navdor tut barglari bilan parvarishlangan ipak qurtlarining lichinkalik davri nazorat variantdagi tut barglari bilan boqilgan ipak qurtlaridan 1-4 kun gacha qisqarishi kuzatilgan.

X.A. Yalg'ashev [5] o'z tadqiqotlarida tut ipak qurt lichinkalarining yoshlari bo'yicha o'sish dinamikasini o'rgangan. Bunda tutning Jarariq 12, Marxamat-2017, Mustaqillik-2018 navlari bilan ipak qurtining seleksion tizimlari parvarishlangan. Tizimlar lichinkalik davri 3-yoshini birinchi kunida, 4-yoshni birinchi kunida va 5 yoshni 1 kunida qurtlar vaznini oshishi orqali kuzatgan. Natijada, navdor tut barglari bilan oziqlangan seleksion tizimlar qurtlarining o'sish dinamikasi tezlashishi aniq isbotlangan.

Tut ipak qurtining o'sishi va rivojlanishida fiziologik jarayonlarni intensiv ketishida fermentlar juda katta ahamiyatga ega. Shulardan biri amilaza fermenti hisoblanadi. Amilaza fermenti ovqat hazm qilishda ishtirok etib, tut bargi tarkibidagi uglevodlarni parchalab moddalar almashinuvini tezlashishga olib keladi. [6] lar tut ipak qurtining "Pure Mysore", "APS45" va "SLFC 27" kabi zotlari gemolimfasidagi amilaza fermenti faolligini aniqladilar. Tadqiqotlar natijasida jinsi pilla davrida nishonlangan "SLFC 27" zotida amilaza fermenti nisbatan faolligi kuzatilgan va qurtlarning lichinkalik davri qolgan ikki zotga nisbatan qisqarib, pilla o'rashga kirishgan. Shu bilan birga qurtlar hayotchanligi 97,2 %, ipakchanligi esa 21,8 % ni tashkil etgan. Tadqiqotchilar ishlarini davom ettirib Hindistonning pillachilik fermer xo'jaliklarida eng ko'p parvarish qilinadigan mahalliy "Pure Mysore" oddiy zoti qurtlari gemolimfasi tarkibidagi amilaza nafaolligini aniqladilar. Ushbu zotda

qurtlarning lichinkalik davri 26 kunni tashkil etib, qurtlar hayotchanligi 95,0%, tirik pillaning ipakchanligi esa atigi 15,4 % ga teng ekani ma'lum bo'ldi.

Ipak qurtini erta pilla o'raydigan zotlariga bo'lgan qiziqish ancha avval olimlarni qiziqtirib kelgan. Jumladan O'zbekistonda [7] ning tut ipak qurtining tezpishar va erta hosil beradigan zotlar ustida olib borgan seleksiya ishlari natijasida SANISH 17 va SANISH 21 zotlarini olishga erishilgan.

Hayot sikli qisqa bo'lgan zotlarni yaratish bo'yicha olingan natijalar quyidagi ma'lumotlarda keltirilgan [8, 9, 10, 11].

Yuqorida keltirilgan qisqa ma'lumotlardan tut ipak qurtining hayot sikli davomiyligini paratipik yoki genetik omillarga bog'liqligini tadqiq etish turlicha xulosalar qilishga olib kelganini ko'rish mumkin. Shulardan kelib chiqib, biz o'z tadqiqot ishlarimizni tut ipak qurtini turli genotipga ega zot va tizimlarida lichinkalik davrini atroflicha tadqiq etishga yo'naltirdik.

Tadqiqot materiali va uslubiyoti. Tadqiqot ishimizning 2020-2024 yillar mobaynida rejalashtirilgan ish dasturiga asosan tut ipak qurtining turli xil belgi xususiyatlarga ega bo'lgan zot va tizimlarida lichinkalik davrini tadqiq etish maqsadida yirik pillali "Go'zal", "Marvarid" o'rta pillali "Gulshan", "Nafis" ingichka tolali "Parvoz 1", "Parvoz 2" zotlari hamda o'rta pillali "Liniya 42", "Liniya 101/1" va mayda pillali ingichka tolali "Liniya 500", "Liniya 501" seleksion tizmalarini tajribalarga jalb etdik. Tadqiqot ishida tuxum mahsuldorligini qurtlarning rivojlanish tezligiga qay darajada ta'sir ko'rsatishi mumkinligi taxlil qilindi. Tajribalar naslchilik ishining asosiy uslubiy qoidalari va 24 soatlik urug' olish texnologiyalari asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tut ipak qurtining har bir zot ichida tuxumlardan qurtlar chiqishi va lichinkalar rivojlanishi tezligi bo'yicha uchta gradatsiyaga ajratildi.

I gradatsiyada eng tez rivojlangan va erta pilla o'ragan qurtlar;

II gradatsiyada rivojlanishi o'rtacha tezlikda bo'lgan qurtlar;

III gradatsiyada esa rivojlanishi eng sekin bo'lgan qurtlar bo'lib, lichinkalar o'sish va rivojlanish tezligi bo'yicha tabaqalashtirildi. Tajribadagi zot va tizimlarning har bir gradatsiya bo'yicha pushtdorligi ya'ni, quymadagi umumiy tuxumlar soni, quymadagi sog'lom tuxumlar soni, quymadagi sog'lom tuxumlar vazni, bir dona tuxum vazni hamda fiziologik nosog'lom tuxumlar ulushi yakka tartibda tahlil qilindi. Tajribadagi tuxumlar vazning aniqlashda PX224 rusumli elektron tarozidan foydalanildi. Biz o'z tadqiqotlarimizda 2020-yildan boshlab qurt boqish mavsumida tajriba zot va tizimlar qurtlarining rivojlanish tezligi bo'yicha gradatsiyalarga ajratdik va ushbu gradatsiyalarning har biridan F₁, F₂, F₃ avlod tuxum quymalari tayyorlandi. Olingan tuxum quymalar tahlil qilingach, har bir gradatsiyadagi tuxum quymalari alohida-alohida qilib jonlantirildi. So'ngra birinchi gradatsiyadagi qurtlarni qaytadan gradatsiyalarga ajratilib, F₄ avlod tuxum quymalari tayyorlandi. Olingan natijalar 1 va 2-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Seleksion zot va tizimlarning lichinka hayoti davomiyligi va pushtdorligi (2020-2024 yy.)

Zotlar va tizimlar	Личинкалик davri davomiyligi, kunlarda			Тухум куймасидаги нормал тухумлар сони (донада)		
	I gradatsiya	II gradatsiya	III gradatsiya	I gradatsiya	II gradatsiya*	III gradatsiya**
Go'zal	26,1±1,05	26,5±1,00	27,1±0,87	662±21,445	666±20,656	669±20,102
Marvarid	25,5±0,75	26,0±0,49	26,7±0,70	661±22,951	667±23,797	670±20,545
Gulshan	25,8±0,75	26,6±0,92	26,7±0,90	582±8,92	586±8,45	587±7,77
Nafis	24,2±0,71	25,4±0,89	25,6±0,67	651±5,05	663±6,21	663±6,56
Parvoz 1	24,4±0,41	25,3±0,59	25,8±0,56	647±3,10	660±5,80	665±5,04
Parvoz 2	24,4±0,53	25,1±0,61	25,4±1,25	643±1,89	649±1,82	649±2,66
Liniya 42	23,9±0,42	24,9±0,85	25,7±1,08	558±28,276	564±27,108	568±26,211
Liniya 101/1	24,9±0,88	25,4±0,44	26,0±0,91	587±12,243	590±11,465	593±10,712
Liniya 500	23,8±0,97	25,0±1,15	25,8±0,86	622±39,098	633±37,370	639±34,771
Liniya 501	23,5±0,79	24,6±0,80	25,5±1,04	614±36,664	622±35,350	625±34,822

Go'zal *Pd=0,077; **Pd=0,154;

Marvarid *Pd=0,154; **Pd=0,229;

Gulshan *Pd=0,229; **Pd=0,302;

Nafis *Pd=0,832; **Pd=0,832;

Parvoz 1 *Pd=0,910; **Pd=0,985; Parvoz 2 *Pd=0,953; **Pd=0,910;
Liniya 42 *Pd=0,154; **Pd=0,229; Liniya 101/1 *Pd=0,154; **Pd=0,302;
Liniya 500 *Pd=0,154; **Pd=0,229; Liniya 501 *Pd=0,154; **Pd=0,154;

2-jadval

Seleksion zot va tizimlarning tuxum quymalaridagi tuxumlar vazni va fiziologik brak ko'rsatkichlari (2020-2024 yy.)

Zotlar va tizimlar	Tuxum quymasining vazni, mg			Fiziologik brak, %		
	I gradasiya	II gradasiya	III gradasiya	I gradasiya	II gradasiya	III gradasiya
Go'zal	408±10,628	411±8,67	415±8,81	1,4±0,28	1,1±0,19*	1,1±0,19**
Marvarid	409±18,154	412±17,511	414±16,829	1,3±0,24	1,2±0,19*	1,1±0,17**
Gulshan	337±12,117	341±10,777	341±10,991	1,6±0,31	1,2±0,23*	1,3±0,24**
Nafis	365±6,44	382±4,06	384±4,06	1,6±0,27	1,4±0,15*	1,3±0,70**
Parvoz 1	365±3,61	375±5,34	375±3,71	1,6±0,17	1,3±0,16*	1,3±1,18**
Parvoz 2	363±6,13	367±3,66	366±3,24	1,6±0,16	1,2±0,18*	1,4±0,19**
Liniya 42	312±21,557	318±19,922	322±19,176	2,0±0,10	1,6±0,12*	1,4±0,23**
Liniya 101/1	346±10,578	350±9,59	353±8,81	1,5±0,09	1,3±0,16*	1,3±0,15**
Liniya 500	324±24,527	327±24,047	332±11,876	1,9±0,29	1,6±0,15*	1,6±0,25**
Liniya 501	334±25,237	337±25,095	341±23,498	1,5±0,32	1,2±0,10*	1,3±0,26**

Go'zal *Pd=0,608; **Pd=0,608; Marvarid *Pd=0,229; **Pd=0,498;
Gulshan *Pd=0,657; **Pd=0,556; Nafis *Pd=0,498; **Pd=0,700;
Parvoz 1 *Pd=0,774; **Pd=0,774; Parvoz 2 *Pd=0,877; **Pd=0,556;
Liniya 42 *Pd=996; **Pd=0,953; Liniya 101/1 *Pd=0,700; **Pd=0,700;
Liniya 500 *Pd=0,659; **Pd=0,659; Liniya 501 *Pd=0,498; **Pd=0,371;

1 va 2-jadvallarda keltirilgan pushtdorlik ko'rsatkichlaridan eng sertuxum zot sifatida qaraydigan bo'lsak, Go'zal va Marvarid zotlarini qayd etish mumkin (662-666-669 dona); (661-667-670 dona). Shu bilan birga, Parvoz 1 va Parvoz 2 zotlari 651-663 dona va 647-660-665 dona gacha tuxum qo'yishi, ushbu zotlarni pushtdor zotlar qatoriga kiritishga asos bo'ladi. Seleksion tizimlardan esa Liniya 500 va Liniya 501 tizimlar etakchilik qilib bu ko'rsatkich 622-633-639 va 614-622-625 dona ni tashkil etdi.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi tut ipak qurtining lichinkalik davri davomiyligini tuxum mahsuldorligiga ta'siri qay darajada namoyon bo'lishini aniqlash edi. Olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, "Go'zal" va "Marvarid" zotlari yirik pillali bo'lib, tuxum mahsuldorligi ham yuqori hamda vazndorligi bilan ajralib turibdi. Lekin qurtlik davri davomiyligi ham boshqa zot va tizimlarga nisbatan sezilarli darajada uzunroq bo'ldi. Birinchi va ikkinchi gradatsiya o'rtasida tuxum mahsuldorligi bo'yicha katta farq yo'qligi ko'rinib turibdi (Pd=0,077-0,154; Pd=0,154-0,229).

O'rta pillali va ingichka tolali "Parvoz 1" va "Parvoz 2" zotlarida qurtlarning lichinkalik davri I gradatsiyada 24,4 kun bo'lsa, II gradatsiyada 25,4-25,8 kunni tashkil etib, tuxum mahsuldorligi bo'yicha sezilarli tafovut borligi aniqlandi (farqning ishonchlilik darajasi yuqori Pd=0,910-0,985; Pd=0,953-0,910). Ya'ni, lichinkalik davri qisqa bo'lsa, tuxumlar soni kamayishi va fiziologik nosog'lom tuxumlar soni ortishi kuzatilar ekan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tut ipak qurtining 10 xil genotipga ega ipak qurti zot va tizimlarining tuxum mahsuldorligi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, lichinkalik davri tezlashishi quymadagi sog'lom tuxumlar soni, quymadagi tuxum vaznini kamayishiga hamda fiziologik brak tuxumlar ulushi oshishiga olib kelar ekan. Bu ko'rsatkichlar ushbu belgi o'rtasida salbiy korrelyativ bog'liqlik mavjudligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

- [1] Rahmathulla V.K. Management of Climatic Factors for Successful Silkworm (*Bombyx mori* L.) Crop and Higher Silk Production. – India, 2012. Hindawi Publishing Corporation Psyche. R. 1-12. doi:10.1155/2012/121234.
- [2] Vallaanchira K., Rahmathulla V.K., Hiromani M., Suresh. Influence of temperature and humidity on growth and development of silk gland of a bivoltine silkworm hybrid. *Iranian Journal of Entomology* (2013) 3, 24-29
- [3] Venugopal Reddy B., Divya P., Anitha M. Quantitative profile Analysis of Mulberry Silkworm *Bombyx mori*. L (CSR₂XCSR).// *International Letters of Natural Sciences*. - India, 2015. No 7. P. 31-34.
- [4] Rajabov N.O. Tut ipak qurti duragaylarining hayotchanligi va ipak mahsuldorligiga yangi yaratilgan tut navlarini ta'siri. // PhD diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018. 11-14-b.
- [5] Yalg'ashev X.A. Yangi tut navlarining ipak qurti o'sishi va rivojlanishiga ta'siri. // *Chorvachilik va naslchilik ishi*. – Toshkent, 2022. №5. 46-47-b.
- [6] Seetharamulu J, Anitha Mamillapalli, Jayashree, Alekhya Rani, Madhavi K and PJ Raju. Studies on the amylase activity in the haemolymph of sex-limited silkworm *Bombyx mori* L. breeds for cocoon colour. *International Journal of Applied Research* 2022; 8(9): 17-21 DOI: <https://doi.org/10.22271/allresearch>. 2022.v8.i9a.10111
- [7] Шурщикова Н.В. Результаты селекционной работы по выведению скороспелых и шелконосных пород тутового шелкопряда САНИИШ № 17 и САНИИШ № 21. // ТРУДЫ Среднеазиатского научно-исследовательского института шелководства – Ташкент, 1965. С-3-23.
- [8] Nasirillaev B.U., Umarov Sh.R., Jumaniezov M.Sh., Xudjamatov S.X. Vliyanie metoda polucheniya odnosutochnykh yais na adaptatsionnye sposobnosti tutovogo shelopryada *Bombyx Mori* L. *Agrarnaya nauka*. 2019;(2):32-35. <https://doi.org/10.32634/0869-8155-2019-322-2-32-35>
- [9] Xudjamatov, S. X., & Nasirillaev, B. U. (2022). Tut ipak qurtining liniya 500 va liniya 501 seleksion tizimlarida qurtlarning hayotchanligi. *Innovation texnologiyalar*, 3(3 (47)), 99-104.
- [10] Khudjamatov, S., Nasirillaev, B., & Rajabov, N. (2023, March). Intensity of egg laying dynamics by butterflies in the first day of the caterpillar's life's period and their relationship with the silkworm selection characteristics. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1142, No. 1, p. 012067). IOP Publishing.
- [11] Nasirillaev, B., Xudjamatov, S., Abdiquodirov, M., & Fayzullaeva, X. (2022). Tut ipak qurti zotlarining lichinkalik davri davomiyligi. *Agro Inform*, (3), 33-36.

IQTISODIYOT FANLARI / ECONOMIC SCIENCES

UDK:332.1.25

HUDUDLARDA KLASTERLARNING SINERGETIK TA'SIRI ASOSIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Qurbonov Alisher Boboqulovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor,
ORCID: [0000-0002-3208-5657](https://orcid.org/0000-0002-3208-5657), E-mail: qurbonov7721@mail.ru

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O'zbekiston

***Annotatsiya.** Qisqa muddat mobaynida klaster usulida faoliyat yuritish o'zining ijobiy tomonlarini ko'rsatdi. Jumladan respublikamizda to'qimachilik sanoatida resurslarni tejaydigan texnika va texnologiyalarni joriy etildi. Yangi va zamonaviy korxonalarini barpo etildi, yangi ish o'rinlarini yaratildi, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish rivojlandi. Shu bois shakllanayotgan va rivojlanayotgan klasterlar faoliyatini barqarorlashtirish, mavjud muammolarni bartaraf etish dolzarb vazifalar sifatida qaralmoqda.*

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda sanoat klasterlarining nazariy-uslubiy asoslari, klasterlar va unga birlashgan tadbirkorlik sub'ektlarining mahsulotlar bozori taraqqiyotidagi roli, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishini olib borgan bir qator olimlarning ishlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy tadqiqotlarning dialektika nazariyasiga tayangan holda analiz va sintez, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Klaster bir tomondan, trigger effektiga ko'ra tezda yangilash imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, bu jarayonda xaridorlar bozordan oldinngi uzluksiz rivojlanishini eslashga majbur qiladi. Boshqa tomondan, klasterning barqarorligi tashqi va ichki salbiy buzilishlarga qarshi turish, mutanosib va barqaror holatni saqlash qobiliyati bilan belgilanadi. Uzoq vaqt davomida harakat bir xil tuzilish, ishlash usuli va traektoriyasi nisbatan. Aynan klaster iqtisodiyoti sizga biznes konsepsiyasini yangidan qurish, odatiy modellarni o'zgartirish, o'zingizni boshqacha joylashtirish va raqobatbardoshlikning yangi joylarini topish imkonini beradi.

***Kalit so'zlar:** Klaster, sanoat klasterlari, mahalliy sanoat, tadbirkorlik, sinergetik samara, trigger samarasi, klasterlarning "Erkin bozor" va "qutblar" nazariyasi.*

УДК:332.1.25

РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА НА ОСНОВЕ СИНЕРГИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ КЛАСТЕРОВ В РЕГИОНАХ

Курбанов Алишер Бобокулович - кандидат экономических наук, профессор,
ORCID: [0000-0002-3208-5657](https://orcid.org/0000-0002-3208-5657), E-mail: qurbonov7721@mail.ru .

Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

***Аннотация.** Работа в кластерном методе за короткий период времени показала свои положительные стороны. В частности, в текстильной промышленности нашей республики внедрены ресурсосберегающие технологии. Создавались новые современные предприятия, создавались новые рабочие места, развивалось производство готовой продукции с высокой добавленной стоимостью. Поэтому стабилизация деятельности возникающих и развивающихся кластеров и устранение существующих проблем считаются актуальными задачами.*

В реализации данного исследования использованы работы ряда ученых, проводивших научные исследования в таких областях, как теоретические и методологические основы промышленных кластеров, роль кластеров и связанных с ними хозяйствующих субъектов в развитии товарного рынка и при изучении факторов, влияющих на него, были теоретически

проанализированы. На основе диалектической теории научного исследования, анализа и синтеза в качестве методологии исследования использовались методы статистического анализа.

С одной стороны, кластер позволяет быстро обновляться по триггерному эффекту. При этом он заставляет покупателей помнить о своем постоянном развитии перед рынком. С другой стороны, устойчивость кластера определяется способностью противостоять внешним и внутренним негативным возмущениям, сохранять сбалансированное и стабильное состояние. В течение длительного времени движение имеет относительно ту же структуру, способ действия и траекторию. Именно кластерная экономика позволяет построить новую бизнес-концепцию, изменить привычные модели, иначе позиционировать себя и найти новые сферы конкурентоспособности.

Ключевые слова: кластер, промышленные кластеры, местная промышленность, предпринимательство, синергетический эффект, триггерный эффект, «Свободный рынок» кластеров и теория «полярный».

UDC:332.1.25

DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP BASED ON THE SYNERGIC INFLUENCE OF CLUSTERS IN REGIONS

Kurbanov, Alisher Bobokulovich - Candidate of Economic Sciences, professor,
ORCID: [0000-0002-3208-5657](https://orcid.org/0000-0002-3208-5657), E-mail: [qurbonov7721@mail.ru/](mailto:qurbonov7721@mail.ru)

Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan

Abstract. Working in the cluster method has shown its positive aspects in a short period of time. In particular, resource-saving technologies have been introduced in the textile industry of our republic. New modern enterprises were created, new jobs were created, and the production of finished products with high added value developed. Therefore, stabilizing the activities of emerging and developing clusters and eliminating existing problems are considered urgent tasks.

In the implementation of this study, the work of a number of scientists who conducted scientific research in such areas as the theoretical and methodological foundations of industrial clusters, the role of clusters and associated business entities in the development of the commodity market and in the study of factors influencing it were theoretically analyzed. Based on the dialectical theory of scientific research, analysis and synthesis, statistical analysis methods were used as the research methodology.

On the one hand, the cluster allows you to quickly update according to the trigger effect. On the other hand, in doing so, it forces buyers to remember their constant development in front of the market. On the other hand, the stability of a cluster is determined by the ability to withstand external and internal negative disturbances and maintain a balanced and stable state. Over a long period of time, movement has relatively the same structure, mode of action and trajectory. It is the cluster economy that allows you to build a new business concept, change the usual models, position yourself differently and find new areas of competitiveness.

Key words: Cluster, industry clusters, local industry, entrepreneurship, synergistic effect, trigger effect, “Free market” of clusters and polar theory.

Kirish

O‘zbekistonda sanoatini innovatsion rivojlantirishning yangi yo‘nalishi, raqobatda ustunlikni ta‘minlash strategiyasi sifatida klasterlarni joriy qilish amaliyotiga e‘tibor chuqurlashmoqda. Klasterlar ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko‘rsatishni bir tarmoqqa to‘plash, qo‘shilgan qiymat zanjirini hosil qilishning samarali yo‘nalishi sifatida raqobatbardosh mulkchilik shakllarining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Qisqa muddat mobaynida klaster usulida faoliyat yuritish o‘zining ijobiy

tomonlarini ko'rsatdi. Jumladan respublikamizda to'qimachilik sanoatida resurslarni tejaydigan texnika va texnologiyalarni joriy etildi. Yangi va zamonaviy korxonalarni barpo etildi, yangi ish o'rinlarini yaratildi, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish rivojlandi. Shu bois shakllanayotgan va rivojlanayotgan klasterlar faoliyatini barqarorlashtirish, mavjud muammolarni bartaraf etish dolzarb vazifalar sifatida qaralmoqda.

Usul va materiallar

Klaster ma'lum bir hududda o'zaro bog'langan korxonalarining iqtisodiy aglomeratsiyasi ob'ekti sifatida hunarmandchilik ishlab chiqarish davridan beri ma'lum. Uning fanda samarali usul sifatida talqin etilishi birinchilardan bo'lib, atoqli iqtisodchi olim A.Marshallning asarlarida paydo bo'ldi. Marshall [1] ularni "Mahalliy sanoat" deb atadi. Keyinchalik "Sanoat hududlari" nomi keng tarqaldi. Hozirda eng mashhur atama "klaster" esa ancha keyin paydo bo'ldi. Klaster alohida iqtisodiy tizim sifatida qaralishi mumkin [2]. Bu esa ham davlat sanoat siyosatining rivojlanishiga, ham butun iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [3].

Bizning davrimizdagi klasterlar to'liqlinining ko'tarilishi asosan vertikal integratsiyalashgan kompaniyalarning parchalanish jarayonlari bilan bog'liq. Buning sababi mahsulotlarning murakkabligining keskin o'sishi edi - birinchi navbatda mashinasozlikda. Yakuniy mahsulotlarni yig'ishda ishlatiladigan oraliq mahsulotlar va butlovchi qismlarning soni va assortimenti ko'p marta oshdi. Bunday sharoitlarda barcha korxonalarining konsentratsiyasi bitta tom ostidagi ishlab chiqarish maydonchalari haqiqiy tanlov bo'lishni to'xtatdi. Muqobil variant - mustaqil ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik, ya'ni klasterlar vujudga kela boshladi. Klaster yondashuvining asoschisi sifatida M. Porter klasterni "Geografik jihatdan qo'shni bo'lgan bir-biriga bog'langan kompaniyalar va ular bilan bog'liq bo'lgan kompaniyalar guruhi" deb ta'riflaydi [4]. Bunday yondashuvlar tarmoqlararo va tarmoq ichida sinergatik ta'sirni ifodalaydi.

Sinerгиya samarasi ichki va tashqi qarshiliklarni, yutuqlar yig'indisini birlashtirganda paydo bo'ladi. Jamoa harakatini natijasini erishish uchun kompaniyalar tuzilmalarini tashkil etishda "Sinerгиya" atamasi A.A.Bogdanov [5], I.Ansoff tomonidan qo'llanilgan [6]. Sinerгиya deganda ikki yoki undan ortiq korxonalarining bir xil yo'nalishda birlashishi natijasida yuzaga keladigan strategik afzalliklar tushuniladi [7]. Klasterlashning sinergetik ta'siri tufayli quyidagi imkoniyatlar vujudga keladi:

- raqobatdan oldingi imkoniyatlar;
- innovatsiyalarning tarqalishi;
- vertikal integratsiya;
- texnologik transfer, hayotiy sikl uzaytirilishi, gorizontal differentsiatsiya.


Tahlil va natijalar

Klasterlar tadbirkorlarning imkoniyatlarini birlashtirgan yagona tizim sifatida shakllandi. Shu bilan birga bir-biriga bog'liq turli xil faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning o'rtacha xarajatlarini qisqartirdi. Tarmoqda mavjud bo'lmagan faoliyat turlarining hosil bo'lishiga imkon yaratdi. Bu esa bir yo'nalishdagi ishlab chiqarish boshqa faoliyat turlariga senergetik ta'sir ko'rsatadi. Senergetik ta'sir mahalliy harakatlar oddiy individual harakatlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Shu munosabat bilan integral tuzilmaning salohiyati individual tuzilma a'zolari potentsiallaridan yuqori bo'ladi. Hamkorlik va samarali foydalanish natijasida uzoq muddatli istiqbolda barcha manfaatdor sheriklarning imkoniyatlari sinergik effektga olib keladi. i emas, balki foydali bo'lishi lozim. Klasterlarni yaratishda ishlab chiqaruvchilarning manfaatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lmasligi kerakligini tushunish muhimligi infratuzilmani rivojlantirish imkoniyatini yaratadi [8].

Klaster iqtisodiyoti ijodkorlik muhitini yaratish va innovatsion faoliyatni shakllantirishni ta'minlash imkonini beradi. Jahon tajribasida klasterlarni shakllantirishda ikkita asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi, 80-90-yillarda taklif qilingan klassik liberal yoki anglo-sakson yondashuvidir. M.Porter aytganidek, xo'jalik sub'ektlarining o'zini-o'zi tashkil etishiga asoslangan "Erkin bozor"

mexanizmlari doirasida sodir bo‘ladi. Ikkinchisi – “Qutblar” deb nomlangan zamonaviy Yevropa yondashuvi raqobatbardosh biznes hamda markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan.


O‘zbekiston Respublikasida klasterlarning vujudga kelishi davlat tomonidan agrar tarmoqda sanoat integratsiyasini qo‘llab - quvvatlash orqali sodir bo‘lmoqda. Bu esa xorijiy va mahalliy investorlarning erkin faoliyat ko‘rsatishi uchun me‘yoriy – huquqiy xujjatlar asosida ta‘minlandi. Agrar sohada qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashning ortda qolishi davlat aralashuvini taqozo qildi. Jumladan, agrar tarmoqda paxta – to‘qimachilik, g‘allachilik, meva – savzavotchilik, farmasevtika, qorako‘lchilik, pillachilik klasterlari tashkil etildi (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida klasterlar soni, birlik


Qashqadaryo viloyatida 2023-yilda 180300 tonna tola ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilga nisbatan 74.2 foizga o‘sgan. Ip –kalava ishlab chiqarish 73,2 foizga, tayyor tikuv - trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish 81.0 foizga ortgan, yog‘-moy ishlab chiqarish 73.1 foizga ortgan. Ammo mato ishlab chiqarish, tayyor tikuv - trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi oshgan bilan, ishlab chiqarish hajmi kam (2-rasm). Shunday bo‘lsa-da, ushbu ishlab chiqarish sohalari oldingi yillarda mavjud bo‘lmagan. Klasterlarning sinergetik ta‘sirida ushbu ishlab chiqarish yo‘nalishlari sekin bo‘lsa-da rivojlanmoqda.

Qashqadaryo viloyatida paxta – to‘qimachilik klasterlarining soni 19 tani tashkil qilgan bo‘lib, shundan, faqat 9-tasi ip-kalava , mato, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaradi. Bu O‘zbekiston iqtisodiyotiga klasterlarning kirib kelishining dastlabki ko‘rinishlari xolos. 2017-yildan buyon agrar sohada klasterlarni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratilgan. Ammo xorijiy va mahalliy investorlarning bu yo‘nalishga kirib kelishi sekin kechdi. 2021-2022 yillardan boshlab klasterlar qayta ishlash sohasini o‘z o‘rniga qo‘yishni boshladi[10].



2-rasm. Qashqadaryo viloyatida klasterlar mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi

3-rasmda har bir klasterga to‘g‘ri keladigan agrosanoat mahsulotlari keltirilgan bo‘lib, ip-kalava, yog‘moy ishlab chiqarishdagi ko‘rsatkichlar juda pastligi ko‘rinib turibdi.



3-rasm. Har bir klasterga to‘g‘ri keladigan agrosanoat mahsulotlari

Munozara

O‘zbekiston Respublikasida klaster iqtisodiyotiga tegishli bo‘lgan uyushgan kompleks disassimilyatsiyadan ko‘ra assimilyatsiya (ichkarida to‘planish)ning ustunligi bilan tavsiflanadi, ya‘ni faoliyatni to‘plash, bu uning uchun noqulay sharoitlarda ayniqsa muhimdir. Disassimilyatsiyaning ustunligi faoliyatning yo‘qolishiga va shunga mos ravishda tizimning tashqi ta‘siriga qarshilikning pasayishiga olib keladi. Klaster iqtisodiyoti konyugatsiya hodisasini o‘zida aks ettiradi[9]. Konyugatsiya, ingression va disgression kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Konyugatsiya jarayoni elementlarning bir xillik, o‘xshashlik, harakatning bir yo‘nalishliligi, bir-birini to‘ldiruvchiligi va boshqalar tamoyillariga muvofiq bog‘lanishi, shuningdek, ularning kombinatsiyasi natijasida “Zanjirli aloqa”ni tashkil etishi bilan ta‘minlanadi. Bu esa klaster iqtisodiyotiga to‘liq mos keladi. Elementlar birikmasining paydo bo‘lishi va o‘zgarishi, xilma-xillikni keltirib chiqaradi hamda tashkiliy shakllarni o‘zgartirib yangi tashkilot hosil qiladi.

Umuman olganda, klasterning paydo bo‘lishi, kamdan-kam istisnolardan tashqari, kombinatsiya ta‘siri ostida o‘z-o‘zidan sodir bo‘lishi lozim. Tadbirkorlik tashabbusini ayrim omillarning asosiysi deb hisoblash mumkin. Bu esa klasterlarning shakllanishi uchun asos hisoblanadi. Bir yoki ko‘plab xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan birgalikda foydalanish imkoniyati yoki zaruriyati bir nechta birlashtiruvchi omillariga bog‘liq. Masalan: asosiy texnologiya, mahsulotlarni marketingni ilgari surish kanallari, kadrlar tayyorlash tizimi, yagona mahsulot sohasiga oid nou-xau yaratish tizimi.

Xulosa

Klaster bir tomondan, trigger¹ effektiga ko‘ra tezda yangilash imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, bu jarayonda xaridorlar bozordan oldingi uzluksiz rivojlanishini eslashga majbur qiladi. Boshqa tomondan, klasterning barqarorligi tashqi va ichki salbiy buzilishlarga qarshi turish, mutanosib va barqaror holatni saqlash qobiliyati bilan belgilanadi. Uzoq vaqt davomida harakat bir xil tuzilish, ishlash usuli va traektoriyasi nisbatan. Aynan klaster iqtisodiyoti sizga biznes konsepsiyasini yangidan qurish, odatiy modellarni o‘zgartirish, o‘zingizni boshqacha joylashtirish va raqobatbardoshlikning yangi joylarini topish imkonini beradi. Klaster ichidagi raqobat tizimni optimallashtirishga va ma‘lumotlar almashinuviga, mutaxassislar, texnologiyalar tizimni rivojlantirishga, moliyaviy resurslarni o‘tkazish imkonini beradi. Klasterni rivojlantirish uchun eng zarur bo‘lgan tarmoqlarga, zamonaviy iqtisodiyot global iqtisodiyot bilan tavsiflanadigan raqobat,

¹ (Ingliz “panja, mandal, tetik” ot ma‘nosida tetik – umumiy ma‘noda biror narsani harakatga keltiruvchi element)

o'zgarishlar, axborot va kommunikatsiyalarning yanada tezroq oqimi o'sib bormoqda. Bu esa biznesning murakkabligi va keng tarqalgan globallashuvni taqdim etadi. O'zgarishlar tezligi shunchalik yuqori bo'ladiki, biz uning mohiyatida innovatsion biznesning yangi davri tug'ilishi haqida gapirishimiz mumkin. Bu yangi iqtisodiy va biznes muhitida zamonaviy texnologik yutuqlar bilan tavsiflanadi. Bozorlarda tez o'zgaruvchan o'yin qoidalari va moslashgan yangi xaridorning shakllanishi ham katta tezlikda o'zgaradi. Shunga ko'ra, ishlab chiqaruvchi talab muammolariga ham, atrofda bozor muhitidagi o'zgarishlarga ham moslashishadi.

Klasterni shakllantirish uchun quyidagi vositalar to'plamidan foydalanish lozim:

➤ tashkiliy va kommunikativ, jalb qiluvchi klasterni rivojlantirish va amalga oshirish mumkin bo'lgan kommunikativ muhitni rivojlantirish;

➤ yaratishni nazarda tutuvchi investitsiyalar jalb qilish, muhandislik yoki klasterni shakllantirish uchun zarur bo'lgan boshqa infratuzilmani shakllantirish;

➤ tashkiliy va huquqiy, me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash. Bu xodimlar, axborot, marketing va boshqa dasturlarni o'z ichiga oladi.

Har qanday klaster ma'lum bosqichlar ketma-ketligidan o'tadi. Ular barcha klasterlar uchun bir xil bo'lmasligi mumkin. Ularning rivojlanish sur'ati har xil bo'lishi mumkin. Biroq, klasterlarning rivojlanishida ba'zi xarakterli jihatlarni aniqlashga imkon beradigan ichki mantiq mavjud. Eng ko'p ishlatiladigan klaster bosqichlari quyidagilar bo'lishi lozim:

➤ strukturaviy - bosqichli, klaster strukturasi rivojlanishini dinamikada qayd etish, uning asosiy vazifasi klaster tuzilmasida uning rivojlanishi uchun paydo bo'lishi kerak bo'lgan yangi elementlarni aniqlashdan iborat;

➤ asosiy ishlab chiqarish va texnologik bosqichlarni belgilovchi ishlab chiqarish va texnologik ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlovchi klasterdagi jarayonlar va asosiy infratuzilma;

➤ muammoli, potentsial klaster tuzilmasi va mavjud vaziyat o'rtasidagi tafovutlarni qayd etish yoki potentsial klaster rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi muammolar.

Adabiyotlar

- [1] Маршалл, А. Основы экономики / А. Маршалл. - М.: Издательство. "Прогресс", 1993. - Т.3. - 351 с.
- [2] Бабкин А.В., Шамина Л.К. Анализ использования методических подходов в управлении экономическими системами // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Серия «Экономика». - 2008. № 1 (53). – Страницы 18-22.
- [3] Бабкин А.В., Бахмутская А.В., Кудрявцева Т.Ю. Разработка Эффективный механизм региональной промышленной политики // Экономический рост России. - 2013. - № 4 (61). - С. 204-202
- [4] Портер, М. Конкуренция. Пер. с англ. // - М.: Издательский дом «Вильямс», 2005. – 608 с.
- [5] Богданов, А.А. Тектология – всеобщая организационная наука. [Текст] – Т. I, II. – М.: Экономика, 1989.]
- [6] Ансофф, И. Новая корпоративная стратегия / И. Ансофф. – СПб.: Изд-во «Питер», 1999. – 416 с.]
- [7] Синергетический подход в управлении [Электронный ресурс] // Режим доступа: <http://www.viktorova-ts.ru>].
- [8] Савелева, Е. А. Создание промышленных кластеров и повышение конкурентоспособности Самарского региона / Е. А.Савелева // Вестник Самарского государственного аэрокосмического университета. - 2009. -№3 - С. 178-192.
- [9] Курбанов А.Б., Равшанов А.Д. Роль инвестиций в развитии предпринимательской деятельности // Экономика и социум. 2022. №10-1 (101). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-investitsiy-v-razvitii-predprinimatelskoy-deyatelnosti> (дата обращения: 24.10.2023).
- [10] Курбанов А.Б. Роль услуг в аграрном предпринимательстве // Экономика и социум. 2023. №4-1 (107). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-uslug-v-agrarnom-predprinimatelstve>